

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

**Qo‘l yozma huquqida
UDK: 33**

XALILOVA IRODA ILYOS QIZI

**ISHLAB CHIQARISHNING TARKIBIY TUZILISHINI O‘ZGARTIRISH
ORQALI TARMOQLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI TA‘MINLASH
YO‘LLARI**

Mutaxassislik: 5A230102 – Iqtisodiyot (ijtimoiy soha iqtisodiyoti)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar _____

i.f.n., prof. B. Rustamov

TOSHKENT – 2017

Dissertatsiya Toshkent moliya instituti «Iqtisodiyot nazariyasi» kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar

prof. B. Rustamov

Kafedra mudiri

dots. D. Djumonov

Magistratura bo'limi boshlig'i

i.f.n., dotsent U.Ortiqov

M U N D A R I J A

	KIRISH.....	4
I-BOB	TARMOQLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHDA ISHLAB CHIQARISHNING TARKIBIY TUZILISHINI O'ZGARTIRISHNING AHAMIYATI	9
1.1.	Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashning iqtisodiy mazmuni	9
1.2.	Iqtisodiyot raqobatdoshliligini ta'minlashda korxonalar innovatsion faoliyatining tutgan o'rni	20
1.3.	Modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash asosida tarmoqlar raqobatbardoshligini oshirishning metodologik jihatlari	28
II-BOB	ISHLAB CHIQARISHNING TARKIBIY TUZILISHINI O'ZGARTIRISHNING TARMOQLAR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI	43
2.1.	Korxona mahsulotlari sifatini oshirish orqali raqobatbardoshligini ta'minlash va eksport salohiyatini kengaytirish	43
2.2.	Ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini o'zgartirish va diversifikatsiyalash asosida tarmoqlar raqobatbardoshligini oshirish yo'llari	52
III-BOB	IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH VA TARKIBIY O'ZGARISHLARNI AMALGA OSHIRISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH YO'LLARI	68
3.1.	O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda tarkibiy o'zgarishlar siyosatining roli	68
3.2.	Tarmoqlar raqobatbardoshligini oshirishda innovatsiyalardan foydalanish istiqbollari	82
	Xulosa va takliflar	93
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	95

Kirish

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Hozirda jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan yangi texnologiyalarning rivojlanishi hamda tovarlar, xizmatlar, ishchi kuchi bozorlaridagi raqobatning kuchayishi milliy iqtisodiyot sub'ektlari tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirishda innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish tizimini faollashtirish va uni yanada samarali tashkil etishga qaratilmoqda. Ayniqsa, mamlakat iqtisodiyotini tarkiban yangilash, fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan ustuvor sohalarni rivojlantirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish ustuvor vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Bu esa, aholining tez o'sib, o'zgarib borayotgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish, so'nggi kashfiyot ishlanmalari va texnologiyalarini ishlab chiqarishga tatbiq etish, raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish va tovarlarining hayotiylik davrini barqaror o'sib borishini ta'minlovchi zamonaviy usullarni keng ko'lamda foydalanishni taqozo etmoqda.

Natijada bozor islohotlarining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi milliy korxonalarining iqtisodiy taraqqiyotini moddiy resurslar asosida emas, balki innovatsion shaklda, raqobat muhitini shakllantirish orqali amalga oshirilishini zaruratga aylantirmoqda.

Bu borada Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganidek: "Bugun shuni tan olishimiz kerakki, raqobat muhitini shakllantirish yo'nalishda amalga oshirilayotgan dasturiy chora-tadbirlar zamonaviy talablarga hali-beri to'liq javob bermaydi. Biz hanuzgacha eskicha fikrlash qolipidan chiqa olmayapmiz, o'z umrini o'tab bo'lgan, eski va yaroqsiz rejali-taqsimot tizimi qoldiqlari, afsuski, butunlay barham topgani yo'q"¹.

Demak, hozirgi kunda respublikamiz sanoat korxonalarini texnologik yangilash bilan bir qatorda, innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish, raqobat muhitini shakllantirishni davom ettirilishini taqozo etmoqda. Bu esa, hozirgi

¹ Каримов И.А. 2014 йил юкори ўсиш суръатлари билан ривожланиш, барча мавжуд имкониятларни сафарбар этиш, ўзини оклаган ислохотлар стратегиясини изчил давом эттириш йили бўлади. –Т.: Ўзбекистон, 2014. – 64 б.

iqtisodiyotning barcha sohalarida globallashtirish jarayonlarining jadallashtirishi, mamlakatlar iqtisodiyotining integratsiyalashuvi hamda tovarlar bozorida raqobatning keskinlashuvi sharoitida yanada dolzarb masalaga aylanmoqda.

Tadqiqot ob'ekti va predmetining belgilanishi. Tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirish natijasida jahon bozorida raqobatbardoshlikka erishayotgan korxonalar tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini o'zgartirish orqali tarmoqlar raqobatbardoshligini ta'minlash bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan iqtisodiy jarayonlar va munosabatlar tadqiqot predmetidir.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Ushbu magistrlik dissertatsiya yozishdan maqsad ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini o'zgartirish orqali tarmoqlar raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Yuqorida ta'kidlanganlardan kelib chiqqan holda ushbu dissertatsiyaga quyidagi asosiy vazifalar qo'yilgan:

- iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashning ahamiyatini nazariy asoslash;
- iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta'minlashda korxonalar innovatsion faoliyatining tutgan o'rnini ilmiy asoslash;
- modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash asosida tarmoqlar raqobatbardoshligini oshirishning metodologik usullarini qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- korxona mahsulotlari sifatini oshirish orqali raqobatbardoshligini ta'minlash va eksport salohiyatini kengaytirish yo'llarini taxlil qilish;
- O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda tarkibiy o'zgarishlar siyosatining rolini aniqlash;
- ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini o'zgartirish, diversifikatsiyalash va innovatsiyalardan foydalanish asosida tarmoqlar raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari: Ushbu disertatsiyada ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini o'zgartirish asosida tarmoqlar raqobatbardoshligini oshirishga, bu jarayonni amalga oshirish amaliyotidagi o'ziga xos muammolarni aniqlashga va ularni bartaraf etish hamda tarmoqlarni rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini o'zgartirish orqali tarmoqlar raqobatbardoshligini oshirishning ayrim jihatlari F.Kene, A.Smit, T.Maltus, J.Mill, J.Sey, A.Kurno, G.Gossen, L.Valras, A.Marshall, V.Pareto, J.Keyns, M.Fridmen, P.Samuelson, J.Gelbreyt L.Erxard, V.Leontev, R.Xarrod, K.Xovard, S.Kuznets, R.Solou² va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Mamlakatimizning qator iqtisodchi olimlari ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish muammosining ayrim jihatlari o'zlarining nazariy qarashlari bilan boyitdilar. Ular jumlasiga A.Abdug'aniev, A.O'lmasov, Sh.Shodmonov, S.G'ulomov, M.Sharifxo'jaev, A.Vahobov, Sh.Yo'ldoshev, X.Barakaev, A.Usmonov³ va boshqalarni kiritish mumkin.

Biroq, yuqorida nomlari qayd etilgan iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini o'zgartirish orqali tarmoqlar raqobatbardoshligini ta'minlash masalalari deyarli o'rganilmagan.

Yuqorida qayd etilgan ilmiy ishlarda iqtisodiy mutanosiblik va muvozanatlik muammosining ba'zi jihatlari e'tibor berilgan bo'lsada, iqtisodiyotni

² Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. –М.: 1976. -332 с.; Мальтус. Т. Опыт о законе народонаселения. –М.: Эконом, 1993. -486 с.; Милль Ж. Основы политической экономии. Т.П.М., 1980.; Сей Ж. Трактат политической экономии. –М.: Экономика. 1980. –С.217.; Маршалл А. Принципы экономической науки. В 3-х томах. – М.: Издательская группа «Прогресс», 1993; Парето В. Чистая экономия. -Воронеж, 1912.; Кейнс Ж. Избранные произведения. –М.: Экономика, 1993.; Фридман М. Если бы деньги заговорили... /Пер. с англ. –М.: Дело, 1998. -160 с.; Самуэлсон П., Нордхаус В. Экономика.: Учебник / 18-е изд.: Пер с англ. –М.: ООО “Вильямс”, 2009. -1360 с.; Гелбрейт Ж. Экономические теории и цели общества. –М.: Прогресс, 1976. -406 с.; Леонтьев В. Межотраслевая экономика /Пер. с англ. Автор предисл. и науч. ред. А.Г.Гранберг. –М.: Экономика, 1997. -479 с.; Ховард К. и др. Экономическая теория: Теория свободного рынка. Учебник для вузов. –М.: Банки и биржи. ЮНИТИ, 1998. -278 с.

³ Абдуғаниев А. Темпы и пропорции воспроизводства общественного продукта в Узбекистане. –Т.: Фан, 1973.; Ўлмасов А., Ваҳобов А. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. –Т.: Шарқ, 2006. -480 б.; Ўлмасов А., Шарифхўжаев М. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. –Т.: Мехнат, 1995. -528 б.; Ваҳобов А. Бозор муносабатлари тизимидаги ижтимоий фондлар. –Т.: Шарқ, 2003. -319 б.; Шодмонов Ш., Ғофуров У. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. –Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2010. -728 б.; Ғуломов С. Бозор иқтисодиёти назарияси ва амалиёти. Дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 2000. -280 б.

modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiyot tarkibiy tuzilishidagi nomutanosibliklarning iqtisodiy mohiyati, kelib chiqish sabablari, namoyon to'lish shakllari va ularni bartaraf etish mexanizmlari etarli darajada yoritilmagan. Ushbu muammoning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur tadqiq etishning zarurligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi va tadqiqot mavzusi sifatida tanlanishga asos bo'ldi.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tasnifi. Tadqiqot ishini tayyorlashning asosiy uslubiy bazasi bo'lib respublikamiz Prezidenti asarlari, mavzuga oid qonunlar, qarorlar va farmonlar, byudjet tizimi to'g'risidagi qonun, Respublika Vazirlar mahkamasi qarorlari va boshqa me'yoriy xujjatlar hisoblanadi.

Dissertatsiyada ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, guruhlash, tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishidagi ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini o'zgartirish orqali tarmoqlar raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tarmoqlar raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha davlat dasturlari, hukumat qarorlari ishlab chiqishda manba sifatida foydalanish mumkin. Tadqiqot ishi materiallari oliy o'quv yurtlarida "Ijtimoiy soha iqtisodiyoti", "Ijtimoiy siyosat", "Iqtisodiy nazariya", fanlarini o'quv dasturlarini takomillashtirish va o'qitish jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashning ahamiyati asoslab berilgan;
- iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta'minlashda korxonalar innovatsion faoliyatining tutgan o'rni asoslab berilgan;
- modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash asosida tarmoqlar raqobatbardoshligini oshirishning metodologik usullarini qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

- korxona mahsulotlari sifatini oshirish orqali raqobatbardoshligini ta'minlash va eksport salohiyatini kengaytirish yo'llari taxlil qilingan;

- O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda tarkibiy o'zgarishlar siyosatining roli aniqlangan;

- ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini o'zgartirish, diversifikatsiyalash va innovatsiyalardan foydalanish asosida tarmoqlar raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqilgan.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Tadqiqot ishi kirish, uch bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, birinchi bobda tarmoqlar raqobatbardoshligini ta'minlashda ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini o'zgartirishning ahamiyati yoritilib, ikkinchi bobda ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini o'zgartirishning tarmoqlar raqobatbardoshligiga ta'siri baholangan hamda so'ngi bobda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish yo'llari bo'yicha taklif va amaliy tavsiyalar berilgan.

I-BOB. TARMOQLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHDA ISHLAB CHIQARISHNING TARKIBIY TUZILISHINI O'ZGARTIRISHNING AHAMIYATI

1.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashning iqtisodiy mazmuni

Kishilik jamiyati taraqqiy etib borgani sari iqtisodiy munosabatlar ham rivojlanib, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishning nisbatan samarali usul va vositalari takomillashib boradi. Bugungi kunda keng ma'noda qo'llanilayotgan modernizatsiyalash jarayoni jamiyat hayotining turli jabhalarini tubdan o'zgartirish, yangilash, taraqqiyotning ilg'or andozalarini tatbiq etish va takomillashtirishning bosh majmui sifatida talqin etilmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, qo'lga kiritilayotgan yutuq va muvaffaqiyatlarning asosida iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonining o'zni ahamiyatli hisoblanadi. Shunga ko'ra, hozirda ushbu jarayonning nazariy va metodologik asoslarini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Modernizatsiyalash juda keng tushuncha bo'lib, uni ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalariga tatbiqan qo'llash mumkin. Bu eng avvalo modernizatsiyalash jarayonini turli jihatlarga ko'ra tasniflash orqali namoyon bo'ladi.

Jumladan, B.Xodiev va boshqa bir qator mualliflar modernizatsiyaning tor va keng ma'nosini farqlaydilar⁴. Xususan, ular modernizatsiya tushunchasiga tor ma'nodagi yondashuv sifatida uning quyidagi mazmundagi ta'rifini keltiradilar: "Modernizatsiya – ob'ektni yangilash, yaxshilash, takomillashtirish, uni yangi talablar va me'yorlarga, texnik shartlarga, sifat ko'rsatkichlariga muvofiqlashtirish. Asosan mashina, asbob-uskunalar, texnologik jarayonlar modernizatsiyalanadi"⁵. Bundan ko'rinadiki, tor ma'nodagi modernizatsiya atamasi asosan texnika, texnologiyaga oid tushuncha deb qaraladi.

⁴ Ходиев Б.Ю., Шодмонов Ш.Ш., Гафуров У.В. Мамлакатни жадал ислох этиш ва модернизация қилиш – миллий тараққиётимизнинг мантқий босқичи: Илмий-оммабоп рисола. – Т.: ТДИУ, 2008. – 53 б.

⁵<http://ekonomic.docu.ru/?id=797665467>.

E.E.Rumyanseva ham masalaga xuddi shunday yondashadi: “Modernizatsiya(modernization) – 1) keng ma’noda – turli takomillashtirishlarni joriy etish orqali zamonaviy talablarga muvofiq o’zgarishlar, ijobiy siljishlarga erishish. Asosan makrodarajada ro’y berayotgan jarayonlarni tavsiflashda qo’llaniladi (masalan, iqtisodiyotni modernizatsiyalash, iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini modernizatsiyalash); 2) tor ma’noda – mol-mulkka nisbatan – mol-mulk ob’ekti elementlarini almashtirish, konstruktiv nuqsonlarni bartaraf etish, (ko’chmas mulk ob’ektlari) tashqi ko’rinishni yaxshilash orqali ma’naviy eskirishni tugatish”⁶.

L.M.Kulikov modernizatsiyalashga fan-texnika taraqqiyotining asosi, uni amalga oshirish shakli sifatida qaraydi: “Fan uzoq yillardan buyon rivojlanib, ishlab chiqarishni yangi g’oyalar bilan “ozuqlantirib” kelmoqda. Shuning uchun fan-texnika taraqqiyoti (FTT), ya’ni texnika va ishlab chiqarish usullarini evolyusion, sekin-astalik bilan modernizatsiyalash u yoki bu darajada barcha texnologik davrlarga xos bo’lib kelgan. Modernizatsiya (lotincha modern(us) – yangi, zamonaviy) – biror narsani zamonaviy talablarga muvofiq ravishda yangilash, takomillashtirish”⁷.

A.Xashimovning “Modernizatsiya – ishlab chiqarishda band bo’lgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni fan va texnikaning so’nggi yutuqlari asosida qayta qurollantirish, yangilash, zamonaviylashtirish. Uni mamlakatdagi resurslardan samarali foydalanish (davlat lokalizatsiya dasturi) asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir”⁸ deb bergan ta’rifidan ko’rinadiki, muallif modernizatsiyaga tor ma’noda yondashish bilan bir qatorda uni amalga oshirish qamrov doirasiga ham nisbatan cheklangan holda yondashgan.

Hozirda modernizatsiya tushunchasining keng ma’nosi tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Yuqorida ta’kidlab o’tilgan mualliflar tomonidan keng ma’nodagi modernizatsiya tushunchasi bugungi kunda jamiyat hayotining

⁶ Румянцева Е.Е. Новая экономическая энциклопедия. 3-е изд. – М.: ИНФРА-М, 2008. – VI, 826 с.-С.374.

⁷ Куликов Л.М. Экономическая теория: учеб. - М. : ТК Велби, Изд-во Проспект, 2005, с.72.

⁸ Хашимов А.А. Ўзбекистонда интеграциялашган корпорацияларни бошқариш. – И.ф.д., проф. Б.Б.Беркинов тахрири остида. – Т.: “ФАН”, 2007, 286-б.

turli jabhalarini tubdan o'zgartirish, yangilash, bu borada taraqqiyotni jahondagi mavjud ilg'or andozalar tomon yo'naltirish va takomillashtirish jarayonlarining majmui sifatida ifodalanadi⁹.

Shuningdek, iqtisodiy adabiyotlarda modernizatsiya jarayonini tavsiflashdagi turlicha yondashuvlar mazmuni bayon etilgan (1.1.1-jadval).

1.1.1-jadval


Modernizatsiya jarayonini tavsiflashdagi turlicha yondashuvlar¹⁰

Yondashuv yo'nalishlari	Modernizatsiya jarayonining qisqacha tavsifi
Klassik sotsiologiya (E.Dyurkgeym, M.Veber)	Ijtimoiy mehnat taqsimotini amalga oshiruvchi ijtimoiy tabaqalanish jarayoni
	Xo'jalik sub'ektlarining o'z faoliyatlari iqtisodiy samarasini eng yuqori darajada oshirish imkoniyatini beruvchi ratsionalizatsiya jarayoni
Neoklassik maktab	Xususiy mulkchilik va demokratiyani mustahkamlash vositasi
Keynschilar maktabi	Zamonaviy tarmoqlarni barpo etish maqsadida xo'jalikning asosiy tarmoqlarini qamrab oluvchi tarkibiy o'zgarishlar

Jadvaldan ko'rinadiki, modernizatsiya jarayoni mazmunini klassik sotsiologiya vakillari "ijtimoiy tabaqalanish" hamda "ratsionalizatsiya" jarayonlari, neoklassik maktab vakillari "xususiy mulkchilik va demokratiyani mustahkamlash vositasi", keynschilar maktabi vakillari esa "xo'jalikning asosiy tarmoqlarini qamrab oluvchi tarkibiy o'zgarishlar" sifatida talqin etadilar. Keng ma'nodagi modernizatsiyani tavsiflovchi turli jihatlar ham ushbu ijtimoiy jarayon mazmunining turli-tuman va serqirraligini ko'rsatadi (1.1.1-rasm)

⁹ Ходиев Б.Ю., Шодмонов Ш.Ш., Гафуров У.В. Мамлакатни жадал ислоҳ этиш ва модернизация қилиш – миллий тараққиётимизнинг мантикий босқичи: Илмий-оммабоп рисола. – Т.: ТДИУ, 2008. – 53 б.

¹⁰ Муаллиф ишланмалари асосида тузилган. Манба: <http://ru.wikipedia.org/wiki>; Нуреев Р. Модернизация экономики: концепции и средства. - <http://www.soob.ru/n/2005/10/c/6>.



1.1.1-рasm. Keng ma'nodagi modernizatsiyani tavsiflovchi turli jihatlar¹¹.

Keng ma'nodagi modernizatsiya jarayonining tavsiflari qatorida shuningdek uning quyidagi tamoyillarini ham ajratib ko'rsatish mumkin:

1) uning majmuaviyligi, ya'ni jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olishi;

2) uning tizimiyligi, ya'ni jamiyat hayoti har qanday tarkibiy qismi yoki yaxlit sohasining o'zgarishi boshqalarining o'zgarishiga olib kelishi. Masalan, madaniy va siyosiy o'zgarishlar iqtisodiyotdagi o'zgarishlarga olib keladi va aksincha;

3) uning global tavsifi – u dastlab bir necha ilg'or mamlakatlarda boshlanib, keyinchalik butun dunyoga yoyilmoqda;

4) uning davomiylik tavsifi – modernizatsiya qisqa davrda ro'y bermaydi, balki u bosqichlarga bo'linadi (islohotlarni amalga oshiruvchi etakchi guruhning paydo bo'lishi, o'zgarishlarni ilgari surish, ular natijalarining tarqalishi va mustahkamlanishi);

5) tabaqalashganlik tavsifi – modernizatsiya turli mamlakatlarda turlicha ro'y berib, u yoki bu holda milliy madaniyat va axloq an'analariga tayanadi (masalan, "yapon iqtisodiy mo'jizasi"), G'arb va Evropa qadriyatlari foydasiga ulardan

¹¹ Муаллиф ишланмаси асосида тузилган. Манба: <http://ru.wikipedia.org/wiki>; Нуреев Р. Модернизация экономики: концепции и средства. - <http://www.soob.ru/n/2005/10/c/6>.

to'liq voz kechishni taqozo etmaydi¹².

Shu o'rinda, fikrimizcha, modernizatsiyalashning innovatsion tavsifi, ya'ni u orqali jamiyatning turli darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotining turli jabhalariga yangi usul va vositalarni tatbiq etish nuqtai-nazaridan yondashish tamoyilini kiritish ham mantiqiy, ham ilmiy jihatdan to'g'ri hisoblanadi (1.1.2-rasm).



1.1.2-rasm. Modernizatsiya jarayonining tamoyillari¹³.

Ba'zi manbalarda modernizatsiyaning alohida jihatlariga e'tibor qaratiladi. Masalan, an'anaviy jamiyatdan zamonaviy (modernity) yoki industrial jamiyatga murakkab o'tish jarayonining tarkibiy qismi bo'lgan siyosiy modernizatsiya ajratilib, uning mazmunini umumiy tizimiy o'tishning ajralmas tarkibiy qismi sifatidagi siyosiy tizimning o'zgarishi tashkil etishi ta'kidlanadi.

Umuman olganda, modernizatsiya juda keng tushuncha bo'lib, bugungi kunda uni jamiyat hayotining turli jabhalarini tubdan o'zgartirish, yangilash, bu borada taraqqiyotni jahondagi mavjud ilg'or andozalar tomon yo'naltirish va takomillashtirish jarayonlarining majmui sifatida ifodalash mumkin. Zero, bu holat mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan 2005 yil 28 yanvardagi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzada ko'rsatib berilgan mamlakatni modernizatsiyalash va isloh etishning ustuvor yo'nalishlari, xususan, iqtisodiyot sohasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan quyidagi dolzarb vazifalar orqali yaqqol namoyon bo'ladi:

¹² Конкурентоспособность и модернизация российской экономики. - <http://www.moderniz.org.ru/>.

¹³ Муаллиф томонидан тузилган. Манба: Конкурентоспособность и модернизация российской экономики. - <http://www.moderniz.org.ru/>.

- mamlakatda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish;
- iqtisodiyotning turli sohalarini erkinlashtirish;
- bozor iqtisodiyoti sharoitida hozirgacha o'tmishdan meros sifatida saqlanib qolayotgan ma'muriy-taqsimot tizimi mezonlaridan butunlay voz kechish;
- xususiy sektorning yanada jadal rivojlantirilishini ta'minlash;
- davlat tuzilmalarining xususiy tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvini yanada ko'proq cheklash;
- kichik biznes va fermerlikni rivojlantirishga e'tiborni qaratish;
- xususiy tadbirkorlik va kichik biznes bilan shug'ullanuvchilar faoliyat ko'rsatishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish hamda ularni rag'batlantirib borishni tashkil etish;
- soliq tizimini yanada takomillashtirish;
- soliqqa tortish borasida qo'shimcha imtiyozlar va pereferensiyalar berilishini ta'minlash va boshqalar¹⁴.


Umuman olganda, modernizatsiyalash jarayonlari ijtimoiy hayotning deyarli barcha jabhalarini qamrab olib, ayniqsa, mazkur yo'nalishlar orasida iqtisodiyotni modernizatsiyalash muhim o'rin tutadi. Zero, milliy iqtisodiyotning barqaror va samarali amal qilishini ta'minlash, uni jahonning rivojlangan mamlakatlari taraqqiyoti darajasiga olib chiqish, turli siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar, jahon bozori kon'yunkturasidagi tebranishlar, inqiroz holatlariga nisbatan "chidamliligi", mustaqil rivojlana olish imkoniyat va salohiyatlari aynan iqtisodiyotdagi tub islohotlar va ularning natijalariga bog'liqdir. Biroq, shu bilan birga iqtisodiyotni modernizatsiyalash ijtimoiy hayotning boshqa sohalaridagi o'zgarishlarga chambarchas bog'liq.

Iqtisodiy fanda modernizatsiyalash jarayonlarini turkumlash katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, texnologik (K.Levi-Stross), funksional (N.Smelser) va global (P.Viner) modernizatsiyalar farqlanadi. Alohida mamlakatlarda modernizatsiya

¹⁴ Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси. // Халқ сўзи, 2005 йил 29 январь, №13, 3-б.

bosqichlarining turlicha talqini farqlanadi¹⁵.

Modernizatsiyalash jarayonlarining bosqichlari to'g'risida so'z ketganda, fikrimizcha, nazariy jihatdan mazkur jarayonlarini qo'llashning turli darajalarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq hisoblanadi (1.1.3-rasm).



1.1.3-rasm. Modernizatsiyalash jarayonlarini qo'llashning turli darajalari¹⁶.

Rasmdan ko'rinadiki, modernizatsiyalash jarayonlarini qo'llashning turli darajalari quyidan yuqoriga tomon kengayib boruvchi ko'rinishda ifodalangan. Har bir darajaning qisqacha mazmunini ko'rib chiqamiz.

Birinchi (eng quyi) daraja – bu alohida texnika, texnologiyani modernizatsiyalash bo'lib, ko'proq tor ma'nodagi modernizatsiyalash tushunchasiga to'g'ri keladi.

Ikkinchi daraja – ishlab chiqarishni modernizatsiyalash yaxlit ishlab chiqarish jarayonlarini namoyon etib, o'z ichiga funksional jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan texnika va texnologiyalar bilan bir qatorda ishlab chiqarishni tashkil etish jarayonlarini modernizatsiyalashni ham oladi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash – ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan

¹⁵ http://www.glossary.ru/cgi-bin/gl_sch2.cgi?RSluwoo!suklwtong.oo

¹⁶ Муаллиф ишланмалари асосида тузилган.

texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yo'nalish va vositalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: korxonalardan eskirgan asbob-uskunalarni chiqarish; ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash; mahalliy resurslar asosida ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish; ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini kengaytirish; ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va resurslarni tejash; sifatni boshqarish va sertifikatlash tizimini joriy etish; chiqitsiz va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish. Buni quyidagi chizma ko'rinishida yaqqol tasavvur etish mumkin (1.1.4-rasm).

Uchinchi daraja – korxona faoliyatini modernizatsiyalash bo'lib, korxonadagi ishlab chiqarish jarayoni bilan bir qatorda boshqaruv va boshqa tashkiliy-iqtisodiy jarayonlarni modernizatsiyalashni ham ko'zda tutadi.

To'rtinchi daraja – jamiyatning alohida jabhalarini modernizatsiyalash bo'lib, keng ma'nodagi modernizatsiyalashning quyi bo'g'ini hisoblanadi. U iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va boshqa jabhalardagi modernizatsiyalash jarayonlaridan iborat bo'ladi.

Beshinchi (eng yuqori) daraja – yaxlit jamiyat (ijtimoiy tuzum)ni modernizatsiyalash keng ma'nodagi modernizatsiyalashning yuqori bo'g'ini.

Iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash jarayonida amalga oshirilayotgan ishlar ijtimoiy hayotimizning deyarli barcha jabhalarida tatbiq etilayotganligi, qamrab olinish ko'lamlari esa muntazam va bosqichma-bosqich kengaytirib borilayotganligi, ayniqsa, iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, milliy iqtisodiyotning barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlash, uni rivojlangan mamlakatlar darajasiga ko'tarish, siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar, jahon bozori kon'yunturasidagi tebranishlar, inqiroz holatlariga nisbatan chidamligi, mustaqil rivojlana olish imkoniyat va salohiyatlari aynan iqtisodiyotdagi tub islohotlar natijalariga bog'liqdir. Shuning bilan birga, iqtisodiyotni modernizatsiyalash ijtimoiy hayotning boshqa sohalaridagi o'zgarishlariga ham chambarchast bog'liq. Ya'ni, barcha soha va jabhalari o'rtasida jadal olib borilayotgan modernizatsiyalash jarayonlarini amalga oshirish

davomida izchillik va mantiqiy muvozanatni ta'minlash zarur. Shundagina ko'zlangan maqsad kutilgan samarmni beradi. Eng avvalo, mamlakatimizda har bir soha bo'yicha davlat darajasidagi dasturlar qabul qilinib, uning ijrosiga katta ahamiyat qaratilayotganligidir. Jumladan, modernizatsiyalash natijalari o'laroq, zamonaviy va takomillashtirilgan texnika-texnologiyalar yordamidasifatli hamda eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarilishiga erishilmoqda.

2008-2009 yillardagi jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi mamlakat iqtisodiyoti modernizatsiyasi yo'nalishlarini chuqurroq o'rganilishiga sabab bo'ldi. Birinchidan, jahon iqtisodiyotidagi beqaror holat milliy iqtisodiyotimizga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin edi, ikkinchidan inqirozdan chiqish va uni oqibatlarini yumshatish uchun jahon iqtisodiyotidagi etakchi mamlakatlarning barchasi modernizatsiyani to'g'ri yo'l deb tan olishdi. Modernizatsiya barcha sohalarda amalga oshirilishi ko'zda tutildi, iqtisodiyot tarmoqlarini texnik, texnologik, innovatsion yangilash davr talabiga aylanadi. Chunki dunyo bo'yicha iqtisodiy imkoniyatlar o'zgaradi va yangi, sifatli mahsulot bilangina bozorlarni egallash mumkin bo'lib qoldi.

O'zbekiston uchun jahon bozoriga yangi marralarga chiqishning ishonchli yo'li sifatida inqiroz davom etib turgan yillarga mo'ljallangan iqtisodiy dasturlarning shu yillarda quyidagi eng muhim yo'nalishlari belgilab berildi:

- tarkibiy o'zgarishlarni davom ettirish va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, buni birinchi navbatda, xalqaro sifat standartlariga javob beradigan, ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan raqobatbardoshli mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash yo'li bilan amalga oshirish, mamlakatni modernizatsiya qilish va aholi bandligini oshirishning eng muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish¹⁷.

- korxonalarni texnik qayta qurollantirish – alohida ishlab chiqarish turlarini zamonaviy talablarga asosan yangi texnika va texnologiyalarni kiritish, ishlab

¹⁷Каримов И. А. Жаҳон молиявий иқтисодий инқироzi, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишининг йўллари ва чоралари. – Т.: Ўзбекистон, 2009.

chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, eskirgan qurilma va uskunalarni yangilash va almashtirish, ishlab chiqarish tuzilmasi va tashkil etilishini yaxshilash yo‘li bilan korxonaning texnik darajasini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuasi. U ishlab chiqarish intinsivligini kuchaytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilashga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Texnik modernizatsiya masalasini XX asr o‘rtalari namunaviy industrializatsiyasi bilan ayniylashtirish noto‘g‘ri. Bu masalaga har qanday, hatto yuqori industriallashgan mamlakat ham duch kelishi mumkin. Ayniqsa jahon iqtisodiyoti postindustrial formatga jadal o‘tayotgan bir paytda. Modernizatsiya strategiyasining muvaffaqiyatli tajribasi quyidagi to‘rtta bosqich ketma-ketligidan iborat bo‘ladi:

1) importning o‘rnini bosish bosqichi (asosiy tarmoqlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlash, yuqori tariflar);

2) eksportga yo‘naltirilgan o‘sishni ta‘minlash bosqichi (eksportni va yirik korxonalarni qo‘llab-quvvatlash, texnologiyalarni qarzga olish);

3) jadal o‘sishni rag‘batlantirish bosqichi (innovatsiyalarga e‘tibor beriladi, tariflarni pasaytirish, antimonopol tartibga solish, kichik va o‘rta korxonalarni qo‘llab-quvvatlash);

4) rivojlangan bozor bosqichi.

Bu evolyusiyaning xususiyatlari importni o‘rnini bosishdan eksportga yo‘naltirilganlikka, o‘rganishdan innovatsiyalarga, yirik firmalarni tashkil etishdan kichik va o‘rta firmalarni qo‘llab-quvvatlashga o‘tishdan iborat. Dunyo mamlakatlari 25 yillik tajribasining ekonometrik hisob-kitoblari shuni ko‘rsatdiki jadal o‘sish uchun etarlicha murakkab strategiyaga amal qilish kerak. Rivojlanish bosqichiga mos modernizatsiya siyosatini tanlay olish va bir bosqichdan ikkinchisiga o‘tishda uni o‘zgartira olish muhimdir.

Bu vazifani amalga oshirish oson bo‘lmay, bunda eng asosiy jihat o‘zgartirishlar uchun kerakli paytni tanlay bilish hisoblanadi. Aks holda, ikkita katta xatodan biriga yo‘l qo‘yilish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Birinchisi inersiya

bo'ylab harakat qilish, ya'ni o'tmishda muvaffaqiyatli bo'lgan siyosatdan u mos kelmaydigan yangi bosqichda foydalanish. Ikkinchisi hukumat kechroq qo'llanishi kerak bo'lgan usul va dastaklardan vaqtidan oldin foydalanishni boshlashi. Ikkala xato ham davlatning iqtisodiyotni modernizatsiya qilish bo'yicha xarakatlarini chippakka chiqarishi mumkin.

O'zbekiston hozirda modernizatsiyaning birinchi bosqichidan ikkinchi bosqichiga o'tish pallasida. Birinchi bosqich uchun iqtisodiyotdagi tuzilmaviy o'zgarishlar va davlatning etakchi tarmoqlardagi aktiv investitsion faoliyati bilan ajralib turadi. Inqiroz ikkinchi bosqichga o'tishni tezlashishiga sabab bo'ldi. Bunda iqtisodiyotning real sektori keng ko'lamli texnik modernizatsiya evaziga mustahkam rivojlanadi.

Shu bilan birga, ilmiy bilimlarni yangi mahsulot va texnologiyalarga kirituvchi tarmoqlarni iqtisodiy rivojlanishini uzoq muddatli shakllanishi eng muhim strategik masaladir. Maqsad – mamlakat raqobatbardoshligini o'rta va uzoq muddatli istiqbolda yuksaltirishdir. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan modernizatsiyalashgan, texnologik jihatdan yangilangan, yangi bozorlarni egallashga qodir iqtisodiyot bilan chiqish uchun o'z ichiga 42,5 mlrd dollarlik 852 ta loyihani oluvchi, 2009-2014 yillarda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta qurollantirish Dasturi qabul qilindi.

Mazkur dastur iqtisodiyotning real sektorida mamlakatning eksport salohiyatini tashkil etuvchi, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan, tayyor mahsulotga bo'lgan ichki talabni qondiruvchi, va mahalliyashtirilayotgan ishlab chiqarishlarda qayta ishlanishi uchun yarimfabrikatlarni etkazib beruvchi yirik loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan.

Bundan tashqari, Dastur ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish, milliy texnologik bazani yangilashni rag'batlantiruvchi turli iqtisodiy mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Xususan, asbob-uskunalarga bojxona bojlarini pasaytirish, texnologik jihatdan yangilanib qayta foydalanishga kiritilgan mulkni soliqqa tortishdan ozod qilish.

1.2. Iqtisodiyot raqobatdoshligini ta'minlashda korxonalar innovatsion faoliyatining tutgan o'rni

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarni, iqtisodiyotni modernizatsiyalash borasidagi sa'y-harakatlarning yanada kuchaytirilishi hozirgi kunda sanoat korxonalarida texnika va texnologiyalarni keng joriy etish hamda investitsiyalar jalb qilish doirasini kengaytirish va ulardan imkon darajasida samarali foydalanishni taqozo etadi. Chunki mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida turli mulchilikka asoslangan ishlab chiqarishni vujudga kelishiga, ya'ni iqtisodiyotda sanoat korxonalari ko'rinishidagi birlashmalarni rivoj topishi mulkdorlarni xo'jalik yurituvchi korxonalar, aksiyadorlik jamiyatlari, shu'ba korxonalar, mas'uliyati cheklangan jamiyatlarini yuzaga kelishiga sabab bo'ldi va o'z faoliyatlarini jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi uchun o'zlarining investitsiyalari bilan iqtisodiy sharoit yaratadi.

Bu borada rivojlangan mamlakatlarda sanoat korxonalarining boshqarish tizimida innovatsion faoliyatni strategik va tizimli boshqarishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, uning natijasida aniq bir tarmoqda ishlab chiqarishni samarali amalga oshirish, boshqaruvni markazlashtirish va innovatsion faoliyatni yanada kuchayishi kuzatilmoqda. Chunki xususiy mulkchilikning rivojlanishi sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishni talab etadi. Davlat tomonidan xususiy mulk va mulk egalarining huquqlarini himoya etilishi investorlar tomonidan sanoat korxonalarida innovatsion muhitni yaxshilashga imkoniyat beradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mamlakatimiz korxonalarida innovatsion faoliyatning yanada rivojlantirishga qaratilgan muammolarni o'rganish, innovatsion faoliyatning samaradorligi, avvalambor, mamlakatda innovatsion muhitni yaxshilashga qaratilgan qonunlar doirasida yagona huquqiy me'yorlar tizimini shakllantiradigan institutsional asoslarni ishlab chiqish darajasiga bog'liq ekanligidan dalolat beradi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida milliy iqtisodiyotning innovatsion faoliyati, birinchidan, innovatsion faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, innovatsion loyihalar, g‘oyalar va ixtirolarni moliyalash tizimini rivojlanganlik jihatlariga bog‘liq bo‘ladi. Demak, sanoat korxonalari raqobatbardoshligini ta‘minlashda innovatsion faoliyatni boshqarish to‘g‘risida fikr yuritilgan ekan, avvalambor, innovatsiya, innovatsion faoliyat tushunchalarini o‘rganib olish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan turli mulkchilikka asoslangan sub’ektlarining innovatsion faoliyati bir qator ijobiy jihatlarni o‘zida mujassamlashtirishi lozim. Jumladan:

- amaliyotga yangi, takomillashgan ishlab chiqarishni joriy etish;
- mahsulot ishlab chiqarish xarajatlaridan unumli foydalanish va xarajatlar rentabelligini oshirish;
- barcha me‘yorlarga ekologik jihatdan to‘liq javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqish hamda ushbu mahsulotlar tannarxini pasaytirish;
- ishlab chiqariladigan mahsulotlarning iste‘mol va sifat xususiyatlarini doimiy ravishda oshirib borish;
- mavjud mahsulotlarga turdosh yangi tur mahsulotlarni ishlab chiqishni kengaytirishni talab etadi.

XX asrning o‘rtalarida keng ko‘lamda rivoj topgan ilmiy-texnik inqilob va tadqiqot sohasini ishlab chiqarishda ro‘y berayotgan turli texnologik o‘zgarishlar o‘sha davrning barcha mulkdorlar, tadbirkorlar hamda iqtisodchilar e‘tiborini tortdi va bunday o‘zgarishlarni ilmiy sohada “innovatsiya” atamasi bilan ifodalana boshlandi. Natijada hozirgi davrga kelib “innovatsiya” tushunchasi biron bir turdagi faoliyatni tarkibiy jihatdan yangilash, tubdan o‘zgartirish, xo‘jalik faoliyati sub’ektlari tomonidan ilmiy-texnik, tashkiliy, boshqaruv va boshqa yangiliklarning yaratilishi, tarqatilishi hamda joriy etilishini ifoda etadi.

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, bugungi kunda ilmiy adabiyotlarda innovatsiyaning mazmuniga turlicha yondashuvlar mavjud. YA’ni, hozirgi vaqtda ikki xil nuqtai nazar keng tarqalgan bo‘lib, birinchisi, joriy etiladigan yangilikka

yangi mahsulot, texnika, texnologiya, uslub va hokazolar ko‘rinishidagi ijodiy jarayon natijasi sifatida qaralsa; ikkinchisida, yangi unsurlar, ne‘matlar, yondashuvlar, prinsiplarni harakatdagilari bilan birga joriy etilishi sifatida qaraladi. Jahon iqtisodiy adabiyotida “innovatsiya” faoliyati ilmiy-texnik taraqqiyotning yangi mahsulot va texnologiyalarda ifoda etiladigan real jarayonga aylanishi deb talqin etiladi.

Bizningcha, innovatsion faoliyat turlarining biri bo‘lib, “innovatsiya” ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarining natijasi ekanligini eslatish maqsadga muvofiqdir. Shu bois, unga tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda quyidagicha ta’rif berish o‘rinli. “Innovatsion faoliyat o‘ylangan maqsadga erishish uchun barcha ilmiy va tadqiqot ishlanmalari, tashkiliy, texnologik, moliyaviy va tijorat harakatlaridagi aniq rejalashtirilgan yangiliklarni yoki innovatsiyani amalga oshirishdir”. Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun rejalashtirilgan vazifalarni bajarish innovatsion jarayonni ifodalaydi.

Shu ma’noda bizningcha, innovatsion jarayonga qisqacha, “Innovatsiyani yaratish va ommalashtirish bilan bog‘liq harakatlar innovatsion jarayondir” – deb, ta’rif berish maqsadga muvofiqdir. Innovatsion jarayon, ish mobayni va uni tashkil etilishida tadqiqot–ishlanma–ishlab chiqarish kabi bosqichlarining asosiy darajalari bilan muvofiqlikda yanada aniq ifodalanadi

Oddiy innovatsion jarayon ikki fazada kengaytirilgan jarayonga o‘tishi mumkin:

1. Yangilikni yaratish va tarqatish.
2. Yangilik kiritish diffuziyasi¹⁸.

Innovatsiya bu-kommunikatsiya bilan bog‘liq bo‘lgan axborot almashish jarayoni. Innovatsiya diffuziyasi esa o‘zlashtirilgan innovatsiyani tarqatish va yangi sharoitlarda qo‘llashni anglatadi.

Innovatsion jarayon sub’ektlari quyidagi guruhlariga bo‘linadi:

¹⁸ Чалдаева Л.А. Финансово-экономические стимулы инновационной экономики // Экономический анализ: теория и практика. — 2009. — Т. 7-8. — №1-2

1. Korxonada faoliyat yuritayotgan novatorlar - fan - texnika taraqqiyoti generatori.

2. Dastlabki retsipientlar – bu birinchi bo‘lib yangilikni joriy qilgan tadbirkorlar hisoblanadi.

3. Dastlabki ko‘pchilik - yangilikni joriy qilgan korxonalar.

4. Qoloqlar - ma‘naviy eskirgan yangilikni endi joriy qiluvchi korxonalar.

Mamlakatni fan va texnologiyalar sohasida rivojlantirish siyosatining ajralmas bir qismi sifatida milliy innovatsion tizimni shakllantirish, bu siyosatning muhim vazifasidir. Innovatsiyalar u yoki bu faoliyat sohasida samaradorlikni oshirish uchun inson aqli erishgan yutuqlardan (kashfiyot, ixtiro, ilmiy va konstruktorlik loyihalari va hokazo) foydalanish tushuniladi. Mos ravishda innovatsiyalar texnologik, iqtisodiy, ekologik, boshqaruv, harbiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy, huquqiy va boshqa turlarga taqsimlanadi. Innovatsiyalar dunyosi inson faoliyati sohalari kabi rangba-rang va turli-tuman ko‘rinishga ega.

Iqtisodiy o‘rishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi texnik taraqqiyot hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida kichik biznes va tadbirkorlik innovatsion jarayonda markaziy rol o‘ynaydi, innovatsiyalar esa texnik taraqqiyot sur‘ati yuqori bo‘lgan tarmoqlarda asosiy raqobat quroli hisoblanadi.

Bu borada XX asrning birinchi yarmi iqtisodchilari orasida Yozef Aloiz Shumpeter (1883-1950) alohida o‘rin egallaydi. Uning zamonaviy iqtisodiy fikrlashga ko‘rsatgan ta’siri neoklassik maktab vakillari ta’siridan kam emas. Aynan shu olim innovatsiyalarni olg‘a suruvchi va unda normal darajadan katta bo‘lgan daromadning asosiy manbasi bo‘luvchi raqobat mexanizmini tavsiflab bergan.

Innovatsiyalar yoki «yangi kombinatsiyalarni amalga oshirish» tushunchasiga Shumpeter tashkilot, mahsulot yoki ishlab chiqarish jarayonini doimiy takomillashtirish yo‘li bilan olinuvchi strategik afzallik va yutuqlarni kiritgan bo‘lib, quyidagi besh holatni ko‘rsatib o‘tgan(1.2.1-rasm).




1.2.1-rasm. Innovatsion faoliyatning yutuqlari

Manba: Tadqiqotdan kelib chiqqan holda muallif ishlanmasi.

Innovatsiyalarni amalga oshirishda pul bozorining roli ham muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan pul bozorida iqtisodiy loyihalar taqqoslanib, rivojlanish moliyalashtiriladi, «kelajakdagi qiymat tizimi paydo bo‘ladi». Iqtisodiyotning etakchi sektori hisoblangan banklar ishlab chiqarishni kengaytirishni yoki yangiliklar kiritishni moliyalashtirishi mumkin. Shumpeterning fikriga ko‘ra, ular milliy firmalar raqobatbardoshligini oshirishda strategik rol o‘ynashi yoki aksincha, vaziyatga sustkashlik bilan javob qaytarishi va «kelajakdagi qiymat»ni izlamasligi mumkin.

Mamlakatda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan yangilik darajasi bo'yicha texnologik innovatsiyalarni bazis, yaxshilovchi va sohta innovatsiyalarga ajratiladi¹⁹ (1.2.2-rasm).



1.2.2-rasm. Texnologik innovatsiyalarning turlari.

Manba: Tadqiqot natijasidan kelib chiqqan holda muallif ishlanmasi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, innovatsion o'zgarishlar amal qilish maydoniga ko'ra, inson faoliyatining barcha sohalari va jamiyatning har bir jabhasini qamrab oladi. Shunga qaramay, boshlang'ich, eng ko'p o'rganilgan texnologik innovatsiyalar sifatida yuqorida keltirilganidek, ishlab chiqarishning yangi texnologik usulining shakllanishi asosida yotuvchi davrga xos innovatsiyalar; texnologik ukladlar va texnika (texnologiya) avlodlarini o'zgartirishga turtki bo'luvchi bazis innovatsiyalar; yangi texnika modellari va texnologiya modifikatsiyalari yordamida yangi bozorlarni o'zlashtirishga xizmat qiluvchi yaxshilovchi innovatsiyalardir.

Texnologik innovatsiyalar tabiat kuchlaridan foydalanish va atrof-muhitga ko'rsatiluvchi zararli ta'sirni kamaytirishning yanada samaraliroq usuli bo'lgan iqtisodiy innovatsiyalar hamda ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish, ishlab chiqarilgan mahsulotlar muomalasi, narx, moliya-kredit, pul mexanizmlari

¹⁹ Кузык Б.Н., Яковец Ю.Б. Россия – 2050 Стратегия инновационного развития. –М.: «Экономика», 2004, с. 22-28

shakllarini o'zgartirishga olib keluvchi va takror ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy innovatsiyalarning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida texnologik innovatsiyalar asta-sekinlik bilan xususiy sektordagi kompaniyalar rivojlanish strategiyasining bir qismiga aylanib bormoqda. Qishloq xo'jalik yoki sanoat korxonalarida yangiliklar kiritish mehnat mahsuldorligini oshirish, moliyaviy, mehnat va moddiy resurslarni tejash hamda chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlar sifatini oshirishga ko'maklashishiga bir qancha misollar keltirish mumkin. Biroq xususiy sektor kutilayotgan raqobatbardoshlik darajasini ta'minlovchi to'laqonli va barqaror innovatsiyalar mexanizmini faqat o'z kuchlari bilangina yarata olmaydi. Bunda hukumatning maqsadli yo'naltirilgan va kompleksli innovatsion strategiyasining o'rni juda ham katta ahamiyatga ega.

Albatta, bunday kompleksli strategiyani amalga oshirish - uzoq muddatli xarakterga ega masaladir. Zamonaviy innovatsion muhit holati ayrim ob'ektiv sabablarga ko'ra qisqa muddat ichida mahalliy biznesning innovatsion darajasi yuqori bo'lishiga imkon bera olmaydi va shu sababdan uning rivojlanishi davlatning ko'plab yo'nalishlari bo'yicha bir qator muammolarni bartaraf etishga kuch sarflashini talab qiladi. Jumladan:

- innovatsion faoliyatni boshqarish bo'yicha korxonalarni ilmiy-texnik axborotlarga ega bo'lish imkoniyatni etarli emasligi va mavjud axborotlarning transaksiya xarajatlarini yuqoriligi;

- kichik biznes sub'ektlari va korxonalar uchun yangi texnologiyalarning qiymati va bozor risklari darajalarining kattaligi;


- innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun o'z resurslarini taklif etuvchi moliyaviy va investitsion institutlarning keng qamrovli va diversifikatsiyalangan bozorini mavjud emasligi;

- innovatsion boshqaruv qarorlari tizimini xususiy sektor hattoki, ko'plab korxonalarda shakllantirilmaganligi;

- innovatsion vositachilar institutlarida fanni ishlab chiqarish bilan bog'lab turishi mumkin bo'lgan rivojlangan tarmog'ini yaratilmaganligi;

Yuqorida keltirib o‘tilgan muammolarning barchasidan shuni anglab etish mumkinki, innovatsion muhit ma’lum ma’noda iqtisodiy va institutsional islohotlarning turli yo‘nalishlaridagi taraqqiyotga bog‘liq bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida har ikki yo‘nalishni bir vaqtda rivojlanishida uzviylik va uyg‘unlashuvini ta’minlashni taqazo etadi.

Iqtisodiy ilmiy adabiyot va manbalarda innovatsiyalarni turli belgilariga ko‘ra turkumlashga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, bu borada bizningcha innovatsiyalarning quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiqdir (1.2.3-rasm).



1.2.3-rasm. Innovatsiyalar klassifikatsiyasi

Manba: Tadqiqot natijasidan kelib chiqqan holda muallif ishlanmasi.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, korxona faoliyatini boshqarish jarayonida kerakli axborot va intellektual resurslarga ega bo‘lgan va qaysi innovatsiyani ishlab chiqish yoki ishlab chiqarishga tatbiq etish lozimligini bilgan taqdirda ham u moliyalashtirish muammosiga duch keladi. Bu muammoni uchta tarkibiy qismga ajratish mumkin: korxonaning o‘z mablag‘lari etishmasligi, banklarning kredit

resurslariga ega bo'lishning qiyinligi hamda innovatsion jarayonlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining etarli darajada mukammal emasligi.

Bizningcha, ushbu keltirib o'tilgan muammolarni jahon amaliyotida keng qo'llanuvchi soliq imtiyozlaridan ya'ni, innovatsiyalarni rag'batlantirishga maqsadli yo'naltirilgan holda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Jumladan:

- yuridik shaxslarning investitsiyalarga va bu investitsiyalarni olish uchun sarflangan kreditlarni qoplashga yo'naltiriluvchi xarajatlari miqdorida ularning soliqqa tortiluvchi daromadini qisqartirish imkoniyatini taqdim etish;

- texnologik innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etishga investitsiyalar ajratuvchi xususiy sektor korxonalarini maqsadli yo'nagan holda soliq imtiyozlari bilan rag'batlantirish;

- tezlashtirilgan amortizatsiyani hisoblash uchun imkoniyatlar yaratish, xususan, uning uchun baland normalar belgilash;

- ichki va tashqi manbalar hisobiga investitsiyalarga soliq imtiyozlarini bir xillashtirish. Masalan, xorijiy kredit hisobiga xarid qilingan asbob-uskunalar shu kreditni to'lash muddati tugaguncha mulk solig'idan ozod qilinadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yuqorida aytib o'tilganidek, innovatsion jarayon nafaqat ishlab chiqarishda balki, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy sohalarda ham amalga oshiriladi. Ijtimoiy-siyosiy va huquqiy sohalardagi innovatsiyalar ijtimoiy stratifikatsiya hamda ijtimoiy sinf va guruhlar tarkibida o'zgarishlarga olib keladi. Iqtisodiyotda innovatsion faoliyatni boshqarish mexanizmlarni ishga tushirish strategik ahamiyatga ega vazifa bo'lib, uni kichikdan kattaga, oddiydan murakkabga qarab amalga oshirish maqsadga muvofiq.

1.3. Modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash asosida tarmoqlar raqobatbardoshligini oshirishning metodologik jihatlari

O'zbekistonda tarmoqlar raqobatbardoshligini oshirishda davlatning roli, birinchi navbatda, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida milliy iqtisodiyot tarmoqlarini tartibga solish, ularga ta'sir etuvchi tashqi salbiy omillarni bartaraf etish, eksportni rag'batlantirish, soliqqa tortishda imtiyozlar berish,

moliya-kredit mexanizmlarini rivojlantirish masalalaridan iborat. Bu jarayonlar bevosita qonuniy-huquqiy jihatlar va institutsional o'zgarishlarga asoslangan holda davlat tomonidan tartibga solinishi lozim.

Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab O'zbekistonda iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha ko'pgina qonunlar, huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ularni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha asoslash mumkin:

birinchidan, davlat boshqaruvining asosiy tamoyillarini belgilab beruvchi qonunlar qabul qilindi;

ikkinchidan, mulkchilik munosabatlari va ko'p ukladli iqtisodiyotni huquqiy asosi yaratildi;

uchinchidan, korxonalarning yangi xo'jalik yuritish mexanizmlarini belgilab beruvchi qonunlar kuchga kiritildi;

to'rtinchidan, tashqi savdo sharoitlarini belgilab beruvchi huquqiy me'yorlar yaratildi va boshqalar.

Tarmoqlarini izchil rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasida quyidagilarga erishildi:

- korxonalarda mahsulotlar ishlab chiqarishda keskin pasayishlarga yo'l qo'yilmadi;

- yirik sanoat korxonalari hisobiga ijtimoiy barqarorlik saqlab qolindi;

- strategik muhim tarmoqlar, birinchi navbatda, yoqilg'i-energetika majmuasini qo'llab-quvvatlash so'nggi yillarda iqtisodiy o'sishni ta'minlamoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati tomonidan olib borilgan izchil islohotlar natijasida milliy iqtisodiyot tarmoqlarida ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Ayniqsa, sanoat tarmoqlaridagi o'zgarishlarni alohida ta'kidlab o'tish kerak. Jumladan, 2000 yilda YAIMda sanoatning ulushi 14,2 foizni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2014 yilga kelib 24 foizga etdi, ya'ni 9,8 foizli punktga o'sdi. Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2014 yilda o'tgan yilga nisbatan 8,3 foizga oshgan²⁰.


²⁰ Ўзбекистон Республикаси Статистика қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан ҳисобланган.

Sanoat tarmoqlarining barqaror o'sishi zahirida, asosan, sohaga kiritilayotgan investitsiyalar yotadi va ularning hajmi so'nggi yillarda jadal sur'atlarda o'sib bormoqda. Jumladan, investitsiyalarning iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tarkibi shuni ko'rsatmoqdaki, 2010 yilda respublikada asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 15 338,7 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2013 yilda esa ushbu ko'rsatkich 13 355,9 mlrd. so'mga oshdi va 28 694,6 mlrd. so'mni tashkil qildi. Iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalarning 2010 yilda sanoatning ulushi 30,4 foizni, ya'ni 4 659,9 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2013 yilga kelib ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 34,2 foizni, ya'ni 9 813,4 mlrd. so'mni tashkil qildi²¹. Jumladan, respublika sanoat tarmoqlari bo'yicha kiritilgan investitsiyalar tarkibi 1.3.1-rasmda keltirilgan.

Ko'rinib turibdiki, so'nggi yillarda yoqilg'i sanoatini rivojlantirishga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi keskin o'sgan. Ma'lumki, yoqilg'i sanoatining asosini birlamchi energiya resurslari iste'moli tarkibida yuqori ulushga ega bo'lgan tabiiy gaz (92 %) tashkil etdi, uning salmoqli ulushi (19-20 %) elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun foydalaniladi²². Demak, ushbu tarmoqqa katta hajmda investitsiyalar yo'naltirishdan asosiy maqsad – aholi, sanoat korxonalari, xizmat sohasi va boshqa sub'ektlarni tabiiy gaz va elektr energiyasi bilan barqaror ta'minlash bilan bir qatorda, jahon bozorida gaz narxining oshib borishi sharoitida valyutadan olinadigan daromad va davlat byudjeti tushumini oshirish, shuningdek, savdo, valyuta va to'lov balansi tarkibini yaxshilashdir.


²¹ Ўзбекистон саноати. Статистик тўплам. – Т.: Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси, 2014. – 142 б.

²² Доклад «Альтернативные источники энергии: возможности использования в Узбекистане», ЦЭИ, 2011.



1.3.1-rasm. Sanoat tarmoqlari bo'yicha barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi²³


Shu bilan bir qatorda, 2010 yildan boshlab, sanoat tarmoqlariga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar ulushi yanada oshib bormoqda (1.3.2-rasm). Ta'kidlash joizki, investitsiyalar, asosan, sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash maqsadida qurilish-montaj ishlari, asbob-uskunalar, jihozlar va inventarlarni olib kelish uchun yo'naltirilmoqda (1.3.3-rasm).



1.3.2-rasm. Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotni asosiy tarmoqlari bo'yicha tarkibi, %²⁴

²³ Ўзбекистон саноати. Статистик тўплам. –Т.: Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси, 2014. –42-43 б.

²⁴ Ўзбекистон рақамларда. Статистик тўплам. - Т.: Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси, 2014. – 159 б.



1.3.3-rasm. Investitsiyalarning texnologik tarkibi, %²⁵

Shunga qaramasdan, O'zbekiston sanoati hali ham resurslarni yuqori darajada iste'mol qilish rejimida ishlamoqda. Xususan, YAIMning energiya sig'imi 4,7 martaga rivojlangan mamlakatlar, 1,4 martaga rivojlanayotgan mamlakatlar darajasidan yuqori²⁶. Shu bilan bir qatorda kapital, investitsiya va mehnat unumdorligi pasaymoqda. Bu ko'p jihatdan asosiy vositalarning ma'naviy eskirishi va eyilishi bilan bog'liq. Keng ko'lamli modernizatsiya dasturlarining²⁷ amalga oshirilishi ma'naviy eskirish va eyilish darajasining pasayishiga imkon yaratdi, biroq u hali ham yuqori darajada – 44 % atrofida qolmoqda²⁸.

Yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etish maqsadida 2015-2019 yillar mobaynida iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya qilish va ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash bo'yicha dastur qabul qilindi. Unga muvofiq 2015-2019 yillarda ishlab chiqarishga jami 19 640,0 mln. AQSH dollar miqdorida investitsiya kiritiladigan bo'lsa, undan 13 676,4 mln. AQSH dollari yangi qurilishga va 4 486,9 mln. AQSH dollari esa modernizatsiya va rekonstruksiya ishlariga jalb qilinadi. Jalb qilinadigan

²⁵ Ўзбекистон рақамларда. Статистик тўплам. - Т.: Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси, 2014. – 156 б.

²⁶ Доклад «Альтернативные источники энергии: возможности использования в Узбекистане», ЦЭИ, 2011.

²⁷ «Саноат тармоқлари корхоналарининг маънавий эскирган ва ейилган асбоб-ускуналарини жадал янгилашга доир қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йил 19 апрелдаги 115-сонли қарори.

²⁸ <http://review.uz/index.php/statji-main-menu/kultura/item/461-modernizatsiya-i-effektivnost-glavnoe-rezultat>.

investitsiyalardan 8 746,6 mln. AQSH dollari xorijiy investitsiyalardir va uni 840,0 mln. AQSH dollari modernizatsiya va rekonstruksiya ishlariga yo‘naltirilishi rejalashtirilgan²⁹.

Yuqorida keltirilgan tahlillardan shuni xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda milliy iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarni yanada jadallashtirish va ularning samaradorligini oshirish talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlarning mohiyati va tamoyillarini tahlil qilish hamda modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash jarayonlarining nazariy va metodologik asoslarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu o‘rinda, modernizatsiya atamasining mazmuniga to‘xtalib o‘tak, unga nisbatan turli xil talqinlar berilgan. Xususan, iqtisodiy adabiyotlar va lug‘atlarda unga quyidagi mazmundagi ta’rif berilgan: «Modernizatsiya – ob’ektni yangilash, yaxshilash, takomillashtirish, uni yangi talablar va me’yorlarga, texnik shartlarga, sifat ko‘rsatkichlariga muvofiqlashtirish, asosan mashina, asbob-uskunalar, texnologik jarayonlar modernizatsiyalanadi»³⁰.

Fikrimizcha, mamlakat iqtisodiyotining etakchi tarmoqlari korxonalari nuqtai nazaridan quyidagi ta’rif ma’qul hisoblanadi, ya’ni: «Modernizatsiya – ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar (ish va xizmatlar) raqobatbardoshligini oshirishga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni texnologik yangilanish jarayonidir. U korxonalarning texnologik qoloqligini bartaraf etish vositasi bo‘lib, mehnat, moddiy va xom ashyo resurslardan samarali foydalanish darajasiga keskin ta’sir ko‘rsatadi. Modernizatsiya, texnik va texnologik yangilash natijalari yuqori texnologik, raqobatbardosh ishlab chiqarishning jadal rivojlanish shartini belgilab beradi»³¹.

²⁹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 4.03.2015 йилдаги ПФ-4707 – сонли «2015-2019 йилларда ишлаб чиқаришни таркибий ўзгартириш, модернизация ва диверсификация қилишни таъминлаш бўйича чора-тадбирлар дастури тўғрисида»ги Фармони.


³⁰ Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь. - 2-е изд., испр. -М.: ИНФРА-М. 1999. – С. 479.

³¹ Иқтисодиёт тармоқлари ва корхоналарнинг техник модернизация ва диверсификация қилиш даражасини баҳолаш бўйича услубий тавсиялар. Тавсия Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт вазирлиги ва Давлат статистика қўмитаси томондан тасдиқланган.

Jumladan, milliy iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash davlat va ishlab chiqaruvchilar nuqtai nazaridan juda ham muhim hisoblanib, ushbu islohotlarni jadallashtirishga asosiy e'tibor qaratish sabablari 1.3.4-rasmda tavsiflab berilgan.

Bugungi kunda O'zbekistonda tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash vazifalarini umumiy ko'rinishda quyidagicha ajratish mumkin:

- zamonaviy va ilg'or texnologiyalarni joriy qilish yordamida strategik muhim tarmoqlarning texnik va texnologik qoloqligini minimallashtirish;
- uzoq muddatli modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha loyihalarni amalga oshirishga qodir investitsiya muhitini shakllantirish;
- tarmoqlar o'rtasida raqobatni kuchaytirishga asos bo'luvchi iqtisodiyotning tashkiliy-funksional boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish;



1.3.4-rasm. Milliy iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga asosiy e'tibor qaratish sabablari
Manba: Muallif tomonidan tuzilgan.

- kooperatsiya birjalari va innovatsion yarmarkalarni tashkil etish orqali milliy iqtisodiyot tarmoqlarida modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash jarayonlarini yanada jadallashtirish;

- ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI) va amaliy tadqiqotlarni buyurtma va grant shaklida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni takomillashtirish va boshqalar.


Milliy iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning uslubiy asosini quyidagicha belgilash mumkin:

- moliyaviy kapitalga nisbatan milliy ishlab chiqarishda ijtimoiy-iqtisodiy sub'ektlar tizimini shakllantiruvchi xususiy mulkchilik vositasi sifatida yondashish;

- hududlardagi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash salohiyatini baholash, iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlaridan foydalangan holda ishlab chiqarishni tashkiliy-texnologik darajasini baholash usuli;

- iqtisodiy sub'ektlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga bo'lgan qobiliyati va imkoniyatini belgilovchi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga asoslangan milliy iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilishning iqtisodiy samaradorligini baholash vositasi.

Korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash imkoniyatini belgilovchi asosiy mezon korxona o'z rivojlanish jarayonini rejalashtirish va prognoz qilish qodirligi hisoblanadi. Ushbu jarayonlarni boshqarishni 1.3.5-rasmda keltirilgan shaklda tavsiflash mumkin.



1.3.5-rasm. Korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash jarayonlarini boshqarish

Manba: Muallif tomonidan tuzilgan.

Shu o'rinda, qiymatni yaratish jarayoni uzoq muddatli davrda muvozanatlashgan holda shakllanadi va aksiyadorlar uchun qiymat, barqaror va uzluksiz o'sishi ta'minlanadi.

Bozor munosabatlari sharoitida zarur shart-sharoit (imkoniyat) nuqtai nazaridan korxonaning moliyaviy-iqtisodiy salohiyati ko'rsatkichidan tashqari yana bir muhim ko'rsatkich bu – xaridorlarning ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi va sifatiga bo'lgan talablari o'zgarishini qondira olish imkoniyati nuqtai nazaridan korxonaning yangilanish qobiliyati, ya'ni korxonani modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qodirligi ko'rsatkichi shakllanadi. Yangi ishlab chiqarishni o'zlashtirish davrini statistik ma'lumotlarni regression tahlil qilish yordamida aniqlash mumkin. Ishlab chiqarish jarayonlarini o'zlashtirish davriga quyidagilarning yig'indisi sifatida qarash mumkin, ya'ni:

$$t_y^o = t_{tjy} + t_{mish} \quad (1)$$

bu erda, t_{tjy} – texnologiyalarni tayyorlash, jihozlash va yig'ish ishlarini amalga oshirishning o'rtacha vaqti; t_{mish} – mahsulot ishlab chiqarish vaqti.


Umumiy kapital yangilanishi o'rtacha davri va oldin shakllangan kapitaldan foydalanish davri ikkita asosiy omillar bilan aniqlanadi, ya'ni: bozor holati hamda texnika va texnologiyalarning rivojlanishi. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida tasodifiylik yanada oshadi, modomiki noaniqliklarni izohlovchi qo'shimcha omillar paydo bo'ldi. Shu nuqtai nazardan, kapital yangilanish koeffitsienti k_y ni aniqlash usulini ishlab chiqish uchun yangi kapitalni kiritish va o'zlashtirishni ehtimollik modelidan foydalanish lozim. Bunday holatda eng qulayi ko'rib chiqilayotgan jarayonlarni diskret holatlar va uzluksiz vaqtlar bilan Markov tasodifiylik jarayoni³² asosida modellashtirish hisoblanadi.

Ko'rib chiqilayotgan tasodifiy jarayonga quyidagi taxminni qo'llash mumkin. YA'ni, tizim holatini diskret deb hisoblaymiz, chunki ularning har birining boshi va oxirida aniq chegaralarni belgilash mumkin. Ularning jamlanishi

³² <http://storage.mstuca.ru/bitstream/123456789/2092/7/%D0%93%D0%BB%D0%B0%D0%B2%D0%B0%2010.doc>.

uzluksiz vaqt bilan ketma-ketlikni vujudga keltiradi. Har bir lahza vaqt $t=\tau$ uchun ehtimollik har qanday diskret holat H_{i-1} ga tizim qachon unga kelganligidan qat'i nazar, uning faqat hozirgi holati H_i ga bog'liq. Shuning uchun tizimlar holati ketma-ketligi hodisalar oqimining bir maromda bo'lishini belgilab beradi. Tizimlarning bir holatdan boshqa holatga o'tishi tasodifiy vaqtda yuz beradi, modomiki oldindan ko'rsatish imkoni bo'lmaydi, tasodifiy o'tish esa bir holatdan boshqa holatga Δt vaqt oralig'i γ_{ij} da teng. Shunday qilib, korxona tomonidan yangi mahsulot ishlab chiqarishni o'zlashtirish, ishlab chiqarish va sotish davrlarini diskret holatlar va uzluksiz vaqtlar bilan Markov tasodifiylik jarayoniga keltirish mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganidek, korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni belgilovchi asosiy mezon korxona o'z rivojlanish jarayonini rejalashtirish va prognoz qilish qobiliyatidir. Shunday ekan, joriy an'anaviy 1-davrda o'zlashtirilgan mahsulot keyingi 2- davrda yangi jarayonlarni rejalashtirish va amalga oshirish uchun ma'lum iqtisodiy zaxira yaratish imkonini beradi, ya'ni uzluksiz innovatsion texnologiyani ishga tushirish korxona barqaror rivojlanishini ta'minlaydi va modernizatsiya qilish imkonini yaratadi. Bu erda cheksiz sonli bosqichlar ko'rsatilgan bo'lishi mumkin, biroq sifat jihatdan farq qiladigan uchta umumlashtirilgan aniq davrlar keltirilgan, ya'ni: joriy davr (D_j), uzoq muddatli (D_{um}) va kelajak davrlarni strategik rejalashtirish (D_{sr}), shuningdek, ular korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash strategiyalarini baholash va diagnostika qilish imkonini beradi (1.3.6-rasm).



1.3.6-rasm. Modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash asosida korxonalarini barqaror rivojlantirish

Manba: Muallif tomonidan tuzilgan.

Korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashning SK_y ijtimoiy, moliyaviy, iqtisodiy, texnologik holatlarini belgilovchi mezonlar orqali ifodalash mumkin:

$$SK_y = I_j, M, I_q, T \quad (2)$$

Mezonlar korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash jarayonlarini ta'minlovchi tizimli omillarni o'zida aks ettiradi, ya'ni: o'z mablag'larining mavjudligi; moliyaviy kreditning foiz darajasi; investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun kredit olish mexanizmining rivojlanganligi; texnik va texnologik baza holati; investitsion xatarlar; investitsiyalarning daromadliligi darajasi; investitsiya jarayonlarini tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy bazaning rivojlanganligi va boshqalar.

Korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qodirligi Q_{y1} ni tavsiflovchi omillar, ya'ni mahsulotni ITTKIning turli bosqichlari va uni o'zlashtirish, ishlab chiqarish va sotish bosqichida bo'lishi mumkin. Bu sharoitda korxonaning tarkibiy barqarorlik darajasini baholovchi ko'rsatkichni topishni talab etadi.

Modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qodirlik Q_{y1} ni aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan biri bozorda yuqori talabga ega bo'lgan mahsulot turlari bo'lishi mumkin. Kapitalni yangilanish K_y vaqtida korxona barqarorligining ichki omili, uchta asosiy davr, ya'ni ITTKI, ishlab chiqarishga tayyorgarlik va ishlab chiqarishni o'zlashtirishni belgilab beradi.

Kapitaldan foydalanish K_f vaqtida korxona barqarorligining tashqi omili esa, yaratilish, o'sish, etuklik, pasayish bosqichlarni qamrab olgan davr oralig'ida o'zgarib turadigan jarayonlar sifatida mahsulot davrni belgilab beradi.

Yangilanish koeffitsienti k_y talab etilgan vaqtda loyihalarni amalga oshirish va umumlashtirish qobiliyati, bozor talablariga javob berish va korxona raqobatbardoshligini ta'minlashni o'zida aks ettiradi. Yangilanish

koeffitsienti k_y ni aniqlashdagi murakkablik shundaki, kapital yangilanish jarayoni doim bozor omillari (mahsulot iste'mol qiymatining o'zgarishi, bozor kon'yunkturasi va boshqalar) ta'siri doirasida noaniqlilik xususiyatiga ega. Yangilanish koeffitsienti k_y ning amaliy mazmuni korxonalarining ma'naviy eskirgan mahsulot o'rniga yangi raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qodir yangi sanoat kapitalini tezroq o'zlashtirishga intilishi bilan izohlanadi. Har qanday vaziyatda yangilanish koeffitsienti k_y ni aniqlash uchun etarli dastlabki ma'lumotlarni shakllantirib, korxona kapitali yangilanishini prognoz qilishning ilmiy asoslangan natijalarini olishimiz mumkin.

Ushbu yondashuvdan foydalanish korxona rivojlanishini rejalashtirish va prognoz qilish jarayonlarini aniqlash imkonini yaratadi. Jumladan, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi va korxona faoliyatining quyidagi asosiy ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro uyg'unlikni ochib beradi.

YA'ni:

- kapital yangilanish vaqti;
- yangi mahsulotni o'zlashtirish va tayyorlash vaqti;
- mahsulotni ishlab chiqarish va bozorda sotish vaqti;
- bozorda talab yuqori bo'lgan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlari.

Korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qodirligini baholash mezonlari quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- *ko'rkamlilik*, ya'ni ikkilamchi vazifalarni emas, balki asosiy qarorlar samaradorligini baholash imkonini yaratish;

- *tahlil qilinayotgan parametrlarga tanqidiy yondashish*, ya'ni har qanday tahlil qilinayotgan parametrlarning o'zgarishi mos ravishda mezon o'zgarishiga olib kelishi lozim;

- *soddalik* – unga ikkilamchi darajali miqdorlar ta'sir etmasligi lozim, ya'ni ko'p mezonli vazifalarni echish juda qiyin hisoblanadi.

Ko‘rib chiqilayotgan model doirasida korxonani strategik rivojlantirishning tashkiliy-loyihalashtirish usulidan foydalanish mumkin, unda asosiy ikkita ishlab chiqarish omili, ya’ni yangi texnika va texnologiyalarni o‘zlashtirishning texnik-iqtisodiy imkoniyati hamda ishlab chiqarish faoliyatini yangilashning tashkiliy, innovatsion-investitsion imkoniyatiga e’tibor qaratiladi.

Kapitaldan foydalanish K_f (yangi mahsulot ishlab chiqarish) vaqtiga nisbatan kapital yangilanishi K_y (modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash) vaqti yangilanish koeffitsienti $k_y = \frac{K_f}{K_y}$ ni ifodalaydi. k_y , K_f , K_y ko‘rsatkichlardan turli xil variantlarda foydalanish. k_y , K_f , K_y ning haqiqatda va me’yoriy darajalarini taqqoslash, shuningdek, tashqi va ichki omillar ta’siri sharoitida ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi va uni ishlab chiqarishni davom ettirish maqsadga muvofiqliligi yoki yo‘qligi mahsulot hayotiy davrning qaysi bo‘g‘inida joylashganligini aniqlash imkonini beradi.

I bob bo‘yicha qisqacha xulosalar.

1. Iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash jarayonida amalga oshirilayotgan ishlar ijtimoiy hayotimizning deyarli barcha jabhalarida tatbiq etilayotganligi, qamrab olinish ko‘lamlari esa muntazam va bosqichma-bosqich kengaytirib borilayotganligi, ayniqsa, iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, milliy iqtisodiyotning barqaror va samarali rivojlanishini ta’minlash, uni rivojlangan mamlakatlar darajasiga ko‘tarish, siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar, jahon bozori kon’yunturasidagi tebranishlar, inqiroz holatlariga nisbatan chidamligi, mustaqil rivojlana olish imkoniyat va salohiyatlari aynan iqtisodiyotdagi tub islohotlar natijalariga bog‘liqdir. Shuning bilan birga, iqtisodiyotni modernizatsiyalash ijtimoiy hayotning boshqa sohalaridagi o‘zgarishlariga ham chambarchast bog‘liq. YA’ni, barcha soha va jabhalari o‘rtasida jadal olib borilayotgan modernizatsilash jarayonlarini amalga oshirish davomida izchillik va mantiqiy muvozanatni ta’minlash zarur. Shundagina ko‘zlangan maqsad kutilgan samarmni beradi. Eng avvalo, mamlakatimizda har bir

soha bo'yicha davlat darajasidagi dasturlar qabul qilinib, uning ijrosiga katta ahamiyat qaratilayotganligidir. Jumladan, modernizatsiyalash natijalari o'laroq, zamonaviy va takomillashtirilgan texnika-texnologiyalar yordamida sifatli hamda eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarilishiga erishilmoqda.

2. Mamlakatimiz sanoat korxonalarida innovatsion mahsulotlar yaratish va xizmatlar ko'rsatish ko'lamini kengayishi o'z navbatida ishlab chiqarish jarayonining yangi ko'rinishlarini joriy qilish, ish o'rinlarni tashkil etish hamda tashqi aloqalarning kengayishiga sharoit yaratadi.

3. Korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash asosida barqaror rivojlantirishning ushbu usuli va modelidan foydalanish korxonaning strategik rivojlantirish jarayonlarini rejalashtirish va prognoz qilish imkonini yaratadi. Chunki ular kapital yangilanish vaqti, ya'ni undan samarali foydalanish va korxona faoliyatining bir qator muhim parametrlari orasidagi bog'liqlikni ochib beradi hamda korxonaning istiqboldagi moliyaviy-iqtisodiy strategiyasini to'g'ri belgilash imkonini yaratadi.

4. Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishidagi nomutanosiblikka yo'l qo'ymaslik va uni oldini olishning eng muhim yo'li tarmoqlararo mutanosiblikni ta'minlashdir. Tarmoqlararo mutanosibliklarning zarurligi quyidagilar orqali namoyon bo'ladi:

1) muayyan tarmoqda yaratilgan mahsulotning boshqa tarmoq uchun xom ashyo, yarimfabrikat yoki butlovchi qism bo'lib xizmat qilishi;

2) tarmoq ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan asbob-uskuna, jihozlar va texnika vositalarining boshqa tarmoqlarda yaratilishi;

3) ba'zi tarmoqlar ishlab chiqarish samaradorligining xizmat ko'rsatish tarmoqlari faoliyatiga bog'liqligi;

4) iqtisodiyotning yaxlit organizm sifatida faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishining uning tarkibidagi turli tarmoqlar o'rtasidagi oqilona nisbatga bog'liqligi va h.k.

II-BOB. ISHLAB CHIQARISHNING TARKIBIY TUZILISHINI O'ZGARTIRISHNING TARMOQLAR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI

2.1. Korxona mahsulotlari sifatini oshirish orqali raqobatbardoshligini ta'minlash va eksport salohiyatini kengaytirish

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning butunlay yangi tizimi barpo etildi. Shu maqsadda, tashqi iqtisodiy aloqalarda mintaqalar ishtirokini faollashtirish va eksport salohiyatini oshirish, eksportga yo'naltirilgan va import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish ustuvor yo'nalish sifatida tanlandi. Bu esa iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning va iqtisodiyotni erkinlashtirishning va barqaror rivojlanishning hal etuvchi omili bo'lmoqda.

Jahon tajribasi hamda o'z milliy iqtisodiyoti taraqqiyotining shart-sharoitlarini hisobga olib, O'zbekiston mustaqillikka erishganining birinchi kunlaridan boshlab, tashqi iqtisodiy sohasida aniq yo'nalishlarni belgilash bo'yicha amaliy tadbirlar belgiladi.

Bu yo'nalishlar davlatning asosiy dasturiy hujjatlaridan aks ettirilgan va respublikaning tegishli qonunlarida mustahkamlab qo'yiladi. Tashqi savdo sohasidagi mo'ljallangan maqsadlarga erishish O'zbekiston xalqaro iqtisodiy, hamkorlikda qatnashishdan keladigan afzalliklardan mumkin qadar ko'proq amalda foydalanish imkonini beradi. Bu afzalliklar – tovar va xizmatlarning ichki va tashqi narxlari o'rtasidagi farq mahsulot ishlab chiqarish ko'lamlarini kengaytirish, ilg'or xorijiy fan-texnika tajribasidan foydalanish va chet el kapitallarini jalb etish hisobiga milliy iqtisodiy samaradorligini oshirishdan iborat.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, tashqi aloqalarni kengaytirish, mamlakatimiz eksport imkoniyatlarini rag'batlantirish maqsadida, muhim me'yoriy hujjatlar qabul qilinganligi tashqi iqtisodiy aloqalarni erkinlashtirish yo'lida qo'yilgan muhim qadam bo'ldi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirishning asosiy tamoyillari tartibi "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida"gi qonunda mustahkamlangan. Ushbu qonun tashqi iqtisodiy aloqalardagi qatnashchilarning

huquqlari, manfaatlari va mol-mulkini xalqaro huquqlarning umumiy mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, himoya qilinishini ta'minlab, respublika iqtisodiyotining jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilishining huquqiy asosini yaratadi.

2016 yil 1 yanvarga qadar respublikadagi o'z mahsuloti hajmining, jumladan yarim tayyor mahsulotlarning (kalava, gazlama, trikotaj gazlama va paxta yigirish chiqindilari) 80 foizi va undan ortig'ini erkin almashtiriladigan valyutaga sotadigan to'qimachilik sanoati korxonalari mulk solig'i to'lashdan ozod qilingan³³.

Mikrofimalar va kichik korxonalar o'zi ishlab chiqargan tovar (ish, xizmat)larni eksport qilishdan tushadigan valyuta tushumining 50 foizini majburiy sotishdan ozod etilgan³⁴.

Sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilish va eksport salohiyatini o'stirishga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, sanoattarmoqlari, komplekslari va korxonalarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash asosida ularning samaradorligi hamda raqobatdoshligini yanada oshirish maqsadida "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qaroriga asosan sanoatni rivojlantirishning kompleks dasturi va modernizatsiya qilinishi, texnik va texnologik yangilanishi, yangidan barpo etilishi kutilayotgan yirik investitsion loyihalar aks etgan bo'lib, quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan³⁵.

Mamlakatimizda 2011-2015 yillarda islohotlarni yanada chuqurlashtirish va kengaytirish, iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiya qilish, qulay tadbirkorlik faoliyatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi:

- huquqiy bazani yanada rivojlantirish va yangi qonunlar qabul qilish;
- mamlakatimizda va hududlarda har tomonlama qulay biznes muhitini yaratish;

³³ Ўзбекистон Президенти Ислом Каримовнинг мамлакатимизни 2014 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2015 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамаси 16.01.2015йил.

³⁴ Ўзбекистон Республикаси Статистика Қўмитаси материаллари.

³⁵ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон 2010

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida soliq va boshqa to'lovlar bo'yicha qulay sharoit yaratish, imtiyoz va preferensiyalar berish;

- faol investitsiya siyosatini amalga oshirish hisobidan iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va uning tarkibini diversifikatsiya etish;

- tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada liberallashtirish, unda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining keng ishtirokini ta'minlash.

Respublika iqtisodiyotida xususiy mulkning o'rnini va rolini tubdan oshirish maqsadida, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi to'siq va cheklolarni bartaraf etish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, yalpi ichki mahsulotda xususiy mulk, jumladan, chet el kapitali ishtirokidagi ulushini izchil oshirish hamda xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar, ya'ni mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklari faoliyatiga oid barcha tekshiruvlar rejali tartibda nazorat organlari tomonidan to'rt yilda bir martadan, boshqa xo'jalik sub'ektlarida esa faqat O'zbekiston Respublikasi Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi respublika kengashi qaroriga asosan uch yilda bir martadan ko'p bo'lmagan tartibda amalga oshiriladi. Respublika iqtisodiyotida xususiy mulkning o'rnini va rolini tubdan oshirish maqsadida, 2016 yildan boshlab turli idoralar huzuridagi «bir darcha» xizmatlari tomonidan ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari, markazlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar tizimga integratsiya qilinib, ta'sis hujjatlari va davlat xizmatlaridan foydalanish uchun taqdim etiladigan boshqa hujjatlar, jumladan, litsenziya va ruxsat berish yo'lga qo'yiladi, bu esa tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatiga olishdan tushayotgan davlat bojining jamisummasi tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyalari daromadiga, 2016 yilning 1 yanvaridan esa «bir darcha» markazlarini moliyalashtirish manbai sifatida ularning daromadiga o'tkaziladi, kelib tushgan mablag'lar faqat markazlar moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va xodimlarni rag'batlantirish maqsadlariga yo'naltiriladi.

Amalga oshirilgan tadbirlar natijasida o'tgan 2014 yilda 500 dan ziyod yangi korxona, birinchi navbatda, kichik biznes sub'ektlari eksport faoliyatiga jalb etildi. Tashqi savdo balansidagi ijobiy saldo 180 million dollarni tashkil qildi, mamlakatimizning oltin-valyuta zaxiralari 1 milliard 600 million dollarga ko'paydi.

Xususan keyingi yillarda TIF milliy banki huzurida maxsus tashkil etilgan Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasining roli bu borada tobora oshib bormoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki huzurida maxsus tashkil etilgan Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasining roli bu borada tobora oshib bormoqda.

2014 yilda mazkur Jamg'arma tomonidan 2 ming 400 ta tadbirkorlik sub'ektiga o'z tovar va xizmatlarini tashqi bozorlarga chiqarish bo'yicha huquqiy, moliyaviy va tashkiliy xizmatlar ko'rsatildi. Jamg'arma ko'magida tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 1 milliard 250 million dollarmiqdoridagi eksport shartnomalari tuzildi. Mazkur shartnomalar asosida o'tgan yili qiymati 840 million dollardan ziyod tovarlar eksport qilindi.

Jamg'arma tomonidan tadbirkorlarga tashqi bozorlarni o'rganish va chet ellik sheriklarni topish, xalqaro tender savdolarida ishtirok etish, shuningdek, eksport shartnomalarini tuzish, xalqaro sertifikatlar, ruxsat berishga oid hujjatlarni olish va bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha faol yordam berilmoqda. Shu borada ishbilarmonlik muhitini yaxshilash hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivoji uchun yanada qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash zarurligini barchamiz albatta yaxshi tushunamiz³⁶.

Xozirgi kunda xorijiy bozorda mahsulot raqobatdoshligiga erishishdagi asosiy omil eksport qilinayotgan mahsulotlarning sifatini oshirish masalasidir. Jumladan, ipakchilik mahsulotlari ishlab chiqarishga iqtisoslashgan kichik bizns

³⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 15 май ПФ-4725-сонли “Хусусий мулк, кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikни ишончли ҳимоя қилишни таъминлаш, уларни жадал ривожлантириш йўлидаги тўсиқларни бартараф этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. //Халқ сўзи 2015 йил 16 майдаги 98 (6281)-сони

korxonalari mahsuloti sifatini oshirish orqali raqobatbardoshligini ta'minlash va eksport salohiyatini kengaytirish hozirgi kunning eng dolzarb masalasidir.

Kichik biznes korxonalarida mahsulot sifatini oshirish orqali raqobatbardoshligini ta'minlash va eksport salohiyatini kengaytirish yo'llaridan biri zamonaviy texnika va ilg'or texnologiyalar hamda sifat menejmentini joriy etish orqali bajariladi.

Kichik biznes korxonalarida ishlab chiqarilayotgan "Kumush tola"dan tayyorlanadigan, jahon bozorida xaridorgir va raqobatbardosh mahsulotlarni eksport qilishdan byudjetga valyuta tushumi miqdorini yanada oshirishda etishtiriladigan pillani miqdori va sifat ko'rsatkichlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish, ularning eksport salohiyatini kengaytirish bugungi kunda respublika korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish bilan bevosita bog'liqdir. Chunki hozirgi globallashtirish sharoitida iste'molchi nafaqat ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sifat sertifikatga ega bo'lishini, balki mahsulotning sifati va ishonchliligiga ham kafolat talab qilmoqda. Tajriba ko'ra, bunday kafolatni ishlab chiqarishga zamonaviy sifatni boshqarish tizimlarini joriy qilgan korxonalargina bera olishi mumkin. Hozirgi kunda 90 dan ortiq mamlakatlarni birlashtirgan sifat menejmenti tizimini ishlab chiqib joriy etishga asoslangan Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO)ga respublikamiz ham a'zodir. Ko'pgina ISO standartlari respublikamizda davlat standartlari sifatida qabul qilingan. Jumladan, sifatni boshqarish tizimini sertifikatlashtiruvchi ISO 9001:2008 standarti. Shu bois, Respublikamiz Hukumati mazkur masalaga katta e'tibor qaratmoqda.

Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 19 iyuldagi 173-sonli "Respublika korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriy etishni kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qarorda 277 ta korxonalarda sifatni boshqarish tizimini 2011 yilgacha joriy qilish, keyinchalik yanaiqtisodiyotni barcha

tarmoqlarining 952 ta korxonalarida shunday tizimni joriy etish imkoniyatlari o'rganib chiqilishi belgilangan.

Xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriy etgan korxonalarga bir qator imtiyozlar berilishi ko'zda tutilgan. Jumladan, xorijdan mahsulot sifatini boshqarishda kerak bo'ladigan jihozlarni olib kelinganda, korxona bojxona to'lovlari va QQSdan ozod qilinadi. Shu bilan birga, ushbu standartlarni joriy etgan korxonalarga davlat ehtiyojlari uchun mahsulot sotiladigan tenderlarda ustunlik beriladi.

Yuqoridagi Hukumat Qaroriga turli mulkchilik shakliga asoslangan Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tarkibidagi "Kumush tola" MCHJ, viloyatlar "Pilla" aksiyadorlik jamiyatlari, "Ipakimpeks" MCHJ hamda "O'zbekengilsanoat" DAK tarkibidagi "Rom Star" Qo'shma Korxonasi "Singapore Samarkand" MCHJ xorijiy, "Hua Lu" MCHJ xorijiy, "Golden Silk" shu'ba korxonasi va "Silver Silk", "Navoiy Silk", "Helil Silk" MCHJ qo'shma korxonalari, jami 15 ta ipakchilik korxonalarida xalqaro standart talabiga javob beradigan sifatni boshqarish tizimi joriy qilindi.

Bu tizimni kichik biznes korxonalarida joriy etilishi bir qator bosqichlarni o'z ichiga oldi. Dastlabki bosqichda kichik biznes korxonalari mavjud sifatni boshqarish tizimini holati auditdan o'tkazilishi lozim. Keyinchalik audit natijalariga ko'ra korxonani "sifat siyosati" ga asoslangan tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi. Reja korxonani barcha faoliyat turlarini o'z ichiga qamrab oladi. Sifat jarayonini boshqarish nafaqat ishlab chiqarishda, ya'ni xomashyoni qabul qilishdan tayyor mahsulotni qadoqlashgacha bo'lgan, balkihujjatlar aylanishi, ichki audit, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, xaridorlarni fikr va tavsiyalarini hisobga olish kabi muhim omillarni nazorat qilishni o'z ichiga oldi. YAkunlovchi bosqichda, ya'ni sertifikatsiyalashda sifatni boshqarishni xalqaro standartlar talabiga mos ravishda amalga oshirilayotganligi tasdiqlanadi. Yuqorida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish kichik biznes korxonalari tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishi va uning istiqbolda, eksport salohiyatini ko'paytirish imkonini beradi.

Kichik biznes korxonalarida ipakchilik mahsulotlariga sifat menejmenti tizimini joriy etishda mahsulot sifatini shakllantiruvchi o'zaro uzviy bog'liqlikda bo'lgan va har biri o'ziga xos bo'lgan omil va sabablarni inobatga olish lozim.

Xom ipak ipak ipi tabiiy tolalar turkumiga kirganligi sababli uni sifatiga uzaro o'zviy bog'lanishda bo'lgan qator omil va sabablar ta'sir etadi. Jumladan, qishloq xo'jalik sohasida: ozuqa bazasini holati; ipak qurti urug'chiligi; pillani etishtirish; pilla etishtiruvchi xodimlarga bevosita bog'liq bo'lgan omillar. Pillani qayta ishlash va xom ipak ishlab chiqarish jarayonida esa: pillaga dastlabki ishlov berish, dastgohlarga bog'liq bo'lgan omillar.

Pillakashlik korxonalarida ishlab chiqaradigan xom ipak ipining sifatini boshqarish, ko'p omil va sabablarga bog'liq bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, bu omil va sabablarni to'g'ri aniqlash va ularni boshqarish, sifatni ta'minlashda muhim bosqich hisoblanadi. Bunda "ekspert" usulidan foydalanilgan holda omil va sabablarni tizimlashtirish, ekspertlar sifatida tarmoq korxonalarining etakchi mutaxassislari va ishchi-xodimlarni jalb etish maqsadga muvofiqdir.

Sabab va oqibat diagrammasi mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi omillarni ochiq oydin ko'rsatadi. Quyidagi diagrammada xom ipak ipini ishlab chiqarishda uni sifatiga ta'sir etuvchi omil va sabablar keltirilgan.



2.1.1-rasm. Xom ipak ipini ishlab chiqarishda uni sifatiga ta'sir etuvchi omil va sabablar, oqibatlar diagrammasi.

Bu diagramma mnemonik 7M usuldan foydalanilgan holda tuzildi, ya'ni ettita sifatni ta'minlovchi asosiy omil guruhlari: ozuqa bazasi; ipak qurti urug'chiligi; pillani etishtirish; pillaga dastlabki ishlov berish; me'yoriy-huquqiy asoslar; dastgoh; pilla etishtiruvchi xodimlarga bog'liq bo'lgan omil va sabablar.

Mahsulot sifatiga bevosita ta'sir etuvchi turli omillarni tizimlashtirish maqsadida "Sabab va oqibatlar" diagrammasi, ko'p holda uni Yaponiyalik sifat sohasidagi professor Isikava nomi bilan yuritiladigan diagramma - "Baliq skeleti"dan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu mahsulotsifatiga bevosita ta'sir etuvchi omil va shartlarni tizimlashtirish imkonini beradi. Mahsulot sifatiga, uni ishlab chiqarish jarayonida ko'p omil va sabablar ta'sirida ta'minlanadi. Shu nuqtai nazardan, talab darajasidagi mahsulotni ishlab chiqarishda omil va sabablarni aniqlash muhim hisoblanadi.

Ipakchilik korxonalarida sifat menejmentini joriy etish orqali xalqaro andozalar talablariga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini yaratdi.

Fikrimizcha, jaxon tajribasidan foydalangan holda sifat menejmentini tadbqiq qilishda ipakchilik korxonalarida sifatni ta'minlovchi quyidagi yo'nalishlarda tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Xomashyoni sifati bo'yicha:

- yuqori va mahsuldor ipak qurtlarini etishtirish orqali, sifatli pilla xomashyosini tayyorlash.

2. Texnologik jarayonlarda sifatni ta'minlash bo'yicha:

- pillakashlik korxonalarini barcha texnologik jarayonlarida sifat ko'rsatkichlarini me'yoriy talablar doirasida ta'minlash.

3. Kadrlar malakasi bo'yicha:

- kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlashni ilg'or uslublarini ipakchilik korxonalarda tatbiq etish va bu tadbirlarni mehnat motivatsiyasi asosida amalga oshirish. Jumladan, YAponiya korxonalarida qo'llaniladigan «Sifat tugarak»larini ipakchilik korxonalarida joriy etish.

Ipakchilik korxonalariga yuqoridagi uchta yo'nalishda samaraliniatijalarga erishishi, xalqaro ISO 9000 standartlari turkumi qo'llanilishi va sertifikat olish imkonini beradi. Ayrim hollarda ISO 9000 standartlari turkumi asosida olingan sertifikat korxonani xorijiy bozorlarda yutuqqa erishishida asosiy omil hisoblanadi. Bundan tashqari sertifikatga ega bo'lgan ipakchilik korxonalari hamkorlari oldida munosib o'rin egallashiga olib keladi. Bu o'z navbatida jahon bozorida respublikamizda ishlab chiqarilayotgan ipakdan tayyorlanadigan mahsulotlar raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Ipakchilik tarmog'i korxonalari raqobat strategiyalari asosiy strategiyalar hisoblanadi, bu qatorga quyidagi strategiyalarni kiritish mumkin: mahsulot tannarxini pasaytirish strategiyasi; mahsulotni differensiatsiyalash strategiyasi; bozorni segmentlash strategiyasi; yangiliklar joriy qilish strategiyasi; bozor ehtiyojlariga zudlik bilan javob qaytarish strategiyasi.

Marketing xizmatining asosiy maqsadi ipakchilik mahsulotlariga talabni shakllantirish va rag‘batlantirish, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish, yangi mahsulot yaratish borasida qabul qilinadigan qarorlarni asoslab berish, shu orqali sotish hajmini, bozor hissasini va foyda oshirilishini ta’minlashdir. Ayniqsa, ipakchilik sohasida marketing xizmati tovarlar xilma-xilligini ta’minlash va iste’molchiga keng tanlov imkonini yaratishda muhim o‘rin tutadi. Bunda marketing xizmati iste’molchiga o‘z didiga ko‘proq mos keladigan tovarlarni topa olishiga ko‘maklashishi lozim.

2.2. Ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini o‘zgartirish va diversifikatsiyalash asosida tarmoqlar raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari

Ko‘plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida etakchi o‘rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so‘zsiz isbotlab bermoqdaki, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda, iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o‘zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta’minlash, faoliyat ko‘rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Bunda milliy iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va mamlakatimizdagi xomashyo va resurslarga boy mavjud manbalardan oqilona foydalanish asosida yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan yuksak texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta’minlaydigan istiqbolli iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta’kidlaganidek: “Biz uchun asosiy vazifa – ishlab chiqarishni texnik va texnologiy jihatdan uzluksiz yangilab borish, doimiy ravishda ichki imkoniyat va zaxiralarni izlab topish, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni izchil davom ettirishdan iborat bo‘lishi

zarur³⁷. To‘qimachilik sanoatida eksportbop raqobatdosh mahsulotlar tayyorlashga yo‘naltirilgan, yakuniy ishlab chiqarish shakliga ega bo‘lgan yangi, zamonaviy to‘qimachilik komplekslarini rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etishi zarur”³⁸.

O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat korxonalari faoliyatini diversifikatsiya qilishni boshqarishga nazariy va metodologik yondashuvlarni asoslash va ularni bozorning iqtisodiy agentlari bilan o‘zaro harakat qilish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ishlab chiqildi hamda to‘qimachilik sanoati korxonalarida ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashni boshqarishning nazariy-uslubiy ishlanmalarini yaratish hamda uning asosida xulosa va ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda yaqin besh yil ichida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini kamida 60 foizga oshirish, yalpi ichki mahsulotda uning ulushini 2010 yildagi 24 foizdan 2015 yilda 28 foizga ko‘paytirishga erishildi. Ana shu maqsadlarga erishish uchun O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2010 yil 15 dekabrda № PQ-1442-sonli qarori bilan “2011-2015 yillarda O‘zbekiston sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi dastur tasdiqlandi. Ushbu dastur sanoat sohasida umumiy qiymati qariyb 50 milliard AQSH dollarini tashkil etadigan 500 dan ortiq yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishni ko‘zda tutadi.

Shuning uchun, bugungi kunda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida mamlakatimizni iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan uzoq muddatli strategik maqsadni amalga oshirish va O‘zbekistonning jahon bozoridagi raqobatdoshligini ta’minlash va

³⁷ Каримов И.А. Бош мақсадимиз – мавжуд қийинчиликларга қарамасдан, олиб бораётган ислохотларни, иқтисодиётда таркибий ўзгаришларни изчил давом эттириш, хусусий мулкчилик, кичик бизнес ва тадбиркорликка янада кенг йўл очиб бериш ҳисобидан олдинга юришдир. 2015 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2016 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларга бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2016 йил 16 январь, № 11 (6446).

³⁸ Каримов И.А. Барча режа ва дастурларимиз ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқамиз қаровонлигини оширишга хизмат қилади. 2010 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2011 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларга бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

mavqeini mustahkamlashga yoʻnaltirilgan tarkibiy oʻzgarishlar va yuksak texnologiyalarga asoslangan zamonaviy tarmoqlar va ishlab chiqarish sohaslarini jadal rivojlantirish siyosatini davom ettirish talab etilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov taʼkidlaganidek: “Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni diversifikatsiya qilish boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlarga alohida eʼtibor qaratishni istardim”³⁹.

Bugungi kunda ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash investitsiyalarni jalb qilishning qoʻshimcha imkoniyatlarini yaratib berish va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish asosida mahalliy korxonalarni ichki va tashqi bozorlarda raqobatlasha olish imkonini yaratib bermoqda.

Buning natijasida 2015 yilda respublikamizda yalpi ichki mahsulot 8 foiz, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8 foiz, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari qariyb 7 foiz, qurilish-montaj ishlari hajmi salkam 18 foizga oshdi⁴⁰.

Isteʼmol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2014 yilda 9,4 foiz, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 8,7 foiz, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 10 foizga oʻsdi. Inflyasiya darajasi yil yakunlari boʻyicha 6,1 foizni tashkil etdi. Bu prognoz koʻrsatkichlariga nisbatan sezilarli darajada pastdir.

Xalqaro miqyosda katta nufuzga ega boʻlgan Jahon iqtisodiy forumi reytingiga koʻra, Oʻzbekiston 2014-2015 yillardagi rivojlanish yakunlari va 2016-2017 yillarda iqtisodiy oʻsish prognozlari boʻyicha dunyodagi eng tez rivojlanayotgan beshta mamlakat qatoridan joy oldi.

Bundan tashqari, 2015 yilda mamlakatimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xoʻjaligi tashkiloti (FAO)ga aʼzo davlatlarning oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash sohasida Mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishgani uchun beriladigan mukofotiga sazovor boʻlgan 14 ta davlatdan biri sifatida eʼtirof etildi.

³⁹ Каримов И.А. Барча режа ва дастурларимиз ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқамиз қаровонлигини оширишга хизмат қилади. 2010 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2011 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларга бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

⁴⁰ Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари

Iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarida zamonaviy yuqori texnologiyalarga asoslangan uskunalar bilan jihozlangan, umumiy qiymati 4 milliard 200 million dollarga teng bo‘lgan 154 ta yirik ob‘ekt foydalanishga topshirildi.

Ularning qatorida yiliga 60 mingta avtomobil ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan «Xorazm avtomobil ishlab chiqarish birlashmasi» mas’uliyati cheklangan jamiyati bazasida «Damas» va «Orlando» rusumidagi engil avtomobillar ishlab chiqarishni tashkil qilish», «Jizzax viloyatida 760 ming tonna portland sement yoki 350 ming tonna oq sement ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish», «80 ming tonna rux konsentratini qayta ishlash bo‘yicha rux zavodini rekonstruksiya qilish», «Mis eritish zavodida yangi sulfat kislota sexini qurish», elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyatini 50 megavattga oshirish maqsadida «Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasini to‘liq miqyosda modernizatsiya qilish», Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi «Mang‘it» mas’uliyati cheklangan jamiyati bazasida yiliga 5 ming tonna mahsulot chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan ip-kalava yigiruv korxonasi tashkil etish» va boshqa ob‘ektlarni ko‘rsatish mumkin.

Investorlarga keng soliq imtiyozlari va preferensiyalar berilgan «Angren» maxsus industrial zonasi, «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi, «Jizzax» maxsus industrial zonasining tashkil etilgani yuqori texnologiyalarga asoslangan korxonalarni rivojlantirish imkonini kengaytirdi. Ushbu zonalar uchun zarur tashqi muhandislik va transport infratuzilmasi to‘liq respublikamiz mablag‘lari hisobidan barpo etilmoqda.

Muhtaram Birinchi Prezidentimiz I. Karimov ta’kidlaganidek: “Mamlakatimizni demokratlashtirish va modernizatsiya qilish borasida boshlangan tizimli islohotlarni, iqtisodiyotimizda, avvalambor, sanoat va qishloq xo‘jaligida tub tarkibiy o‘zgarishlarni so‘zsiz davom ettirish, xususiy mulk, tadbirkorlik va kichik biznesni jadal rivojlantirish va bu soha vakillari manfaatlarini himoya qilish, makroiqtisodiy mutanosiblikni ta’minlash 2016 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishiga aylanishi zarur”⁴¹.

⁴¹ Каримов И.А. Бош мақсадимиз – мавжуд қийинчиликларга қарамасдан, олиб бораётган ислохотларни, иқтисодиётда таркибий ўзгаришларни изчил давом эттириш, хусусий мулкчилик, кичик бизнес ва

2016 yilda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 7,8 foizdan iborat bo'lishini ta'minlash, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 8,2 foiz, qishloq xo'jaligida 6,1 foizga oshirish, chakana savdo aylanmasini 14 foiz, xizmatlar ko'rsatish hajmini 17,4 foizga ko'paytirish vazifasi qo'yilmoqda. Inflyasiya darajasini 5,5-6,5 foiz doirasida saqlab qolish, aholining real daromadlarini 9,5 foizga, o'rtacha ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalarni, soliq imtiyozlarini inobatga olgan holda, 15 foizga oshirish ko'zda tutilmoqda.

To'qimachilik sanoati korxonalari faoliyatini diversifikatsiyalash strategiyasining asosiy vazifasi – ishlab chiqaruvchilar tomonidan tanlangan startegiyalarning ehtimoliy imkoniyatlarini avvaldan rejalashtirib, shaklini o'zgartirish orqali boyliklarni, bozordagi o'rinlarni va boshqa maqsadlarni ular rivojining istalgan darajasiga etkazishni ta'minlashdan iborat.

Iqtisodiyoti yildan-yilga rivojlanib borayotgan mamlakatimizda ham ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunga «O'zbekengilsanoat» AJ tarkibidagi korxonalarda olib borilayotgan ishlar yaqqol misol bo'la oladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining istiqbolli tarmoqlaridan biri bo'lgan mazkur sohada bugungi kunda 300 dan ortiq korxona faoliyat ko'rsatmoqda. 2014 yil natijalariga ko'ra, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2013 yilga nisbatan 123 foiz, xalq iste'mol mollari 133,1 foizga ko'paygani izchil islohotlarning amaldagi natijasidir.

2014 yilda kompaniya 32 turda yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi. 35 million kvadrat metr paxta matosi o'zlashtirilib, tikuvchilik va trikotaj mahsulotlarining 68 modeli yaratildi. Yangi mahsulotlarning umumiy hajmi 140,6 milliard so'mdan ortiqni tashkil etdi.

To'qimachilik sanoatining keyingi rivojlanishi trikotaj -tikuvchilik tarmog'i rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Hozirgi kunda "O'zbekengilsanoat" AJ

тадбиркорликка янада кенг йўл очиб бериш ҳисобидан олдинга юришдир. 2015 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2016 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларга бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2016 йил 16 январь, № 11 (6446).

korxonalari ishlab chiqariyotgan mahsulotlar umumiy hajmida tayyor trikotaj - tikuvchilik mahsulotlari 23 foizni tashkil qiladi. Sifatli tikuvchilik va trikotaj buyumlari ishlab chiqarishda boshqa omillar bilan birgalikda inson omili ham asosiy o‘rinni egallaydi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati va bozorda unga bo‘lgan talab marketing tadqiqotlariga tayangan holda, dizayner va modelerlarga bog‘liqdir⁴².

Tarmoqdagi asosiy muammolarni hal etishga to‘qimachilik sanoatidagi ishlab chiqarishning texnologik darajasi ham ta’sir etadi. 2014 yil xolatiga ko‘ra "O‘zbekengilsanoat" AJ tarkibidagi korxonalarining 65 foizi yangi texnologik uskunalar bilan jihozlangan bo‘lsa, ulardan 70 tasi yigirish-to‘qishga ixtisoslashgan, 74 tasida trikotaj mahsulotlari ishlab chiqariladi (2.2.1-jadval).

2.2.1-jadval

**To‘qimachilik korxonalarining zamonaviy uskunalar bilan
jihozlanganlik darajasi**

Tarmoq nomi	Korxonalarning soni	Shu jumladan			
		Eski uskunali	foizda	Zamonaviy uskunali	foizda
1	2	3	4	5	6
Yigirish-to‘qish	134	64	47,8	70	52,2
Trikotaj-tikuvchilik	116	42	36,2	74	63,8
Ipakchilik	35	19	54,2	16	45,8
"O‘zbekengilsanoat" AJ bo‘yicha	285	100	35	185	65

Manba: "O‘zbekengilsanoat" AJ ma’lumotlari

Jahon bozoridagi tendensiyalardan kelib chiqib, sohaga chet ellik investorlarni jalb etish orqali yangi to‘qimachilik majmualarini qurish, mavjudlarini diversifikatsiyalash, ya’ni texnik-texnologik yangilashga oid loyihalarni amalga oshirish ishlari davom ettirilmoqda. 33 to‘qimachilik korxonasida 125,5 million AQSH dollari miqdoridagi diversifikatsiya va modernizatsiya qilish ishlari natijasida 2,8 mingta yangi ish o‘rni yaratildi.

⁴² "Ўзбекенгилсаноат" АЖнинг 2008-2016 йиллардаги статистик маълумотлари.

2015 yil yanvar-dekabr oylaridagi “O‘zbekengilsanoat” AJ tarkibidagi engil sanoat korxonalari tarmoqning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida samarali faoliyat yuritdilar:

2015 yilda Investitsiya dasturi doirasida sohaga 187,3 mln. AQSH dollari miqdorida (prognozga nisbatan 102,7 %) investitsiyalar jalb qilindi va 179,4 mln. AQSH dollari miqdorida (102,6%) o‘zlashtirildi.

33 ta yangi va modernizatsiya qilingan korxonalar ishga tushirildi. Shundan 19 tasi tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan.

Masalan, Sirdaryo viloyatidagi 7 mln juft paypoq mahsulotlari ishlash quvvatiga ega “Neo Kotton” MCHJ, Qashqadaryo viloyatidagi “Murodali Farm Tekstil” 0,5 mln.dona sochiq mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, Jizzax viloyatidagi “Diamond Karpet” MCHJ 3,0 mln.kv.metr gilam mahsulotlari va Toshkent viloyatidagi “Toys Produkts”MCHJ 10.0 mln. dona tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga quvvatiga ega korxonalari shular jumlasidandir.

Natijada, tarmoqning ishlab chiqarish quvvati ip kalava bo‘yicha 41,4 ming tonnaga, trikotaj mato bo‘yicha 6,6 ming tonnaga, paypoq mahsulotlari 8 mln.juftga, tikuv-trikotaj buyumlari bo‘yicha 16,0 mln. donaga oshdi. Ushbu korxonalar hisobiga sohaning eksport salohiyati 95,0 mln. AQSH dollariga ko‘paydi va 2685 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘atlari 122,1 foizni (3164,3 mlrd.so‘m) tashkil etdi. Paxta tolasini chuqur qayta ishlash hajmini ko‘paytirish choralarini amalga oshirish (17 %) natijasida tikuv-trikotaj mahsulotlari o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1.3 barobarga, paypoq mahsulotlari esa 1.3 barobarga ortiq ishlab chiqarildi.75 ta yangi turdagi 164 model - assortimentda 205,0 mlrd. so‘mlik xalq iste’mol mollari ishlab chiqarildi va 868,2 mln. AQSH dollari miqdorida mahsulotlar dunyoning 50 tadan ortiq mamlakatlariga eksport qilindi (2014 yilga nisbatan 101.9%). Xalq iste’moli mollaring ulushi umumiy tovar mahsulotlarida 42 % ni tashkil etdi.

Tayyor mahsulotlarning umumiy eksportdagi ulushi 35.4 % ni (315,9 mln.doll.) tashkil etdi.

O'tgan davrda tarmoqda 12536 ta ish o'rinlari yaratildi. Jumladan investitsiya bo'yicha 7083 ta, tarmoqni rivojlantirish hisobiga 5383 ta, kasanachilik asosida 65 ta, lokalizatsiya mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etishda 5 ta ish o'rinlari yaratildi.

Jahon bozorida to'qimachilik mahsulotlarini sotishda raqobatning kuchayganligi sababli, xorijiy mamlakatlardagi dillerlik bo'limlarimiz orqali tashqi bozorlardagi to'qimachilik mahsulotlariga bo'lgan talab vaehtiyojlarni chuqur o'rganildi. Olingan ma'lumotlarning tahlili natijasida, xaridorga bugun, nafaqat sifatli oddiy mahsulotlar emas, balkim aksessuarlar bilan bezatilgan, har xil qo'shimcha detallar bilan boyitilgan va yuqori dizayn ishlanmalari bo'lgan mahsulotlar zarurligi aniqlandi. Eng asosiysi bunday mahsulotlar xaridorgir, raqobatbardosh bo'lish bilan birga, narxi oddiysiga nisbatan 1.5-2 barobar ortiq. Demak, yangi mahsulot turlarini yaratishda bu omillarni asosiy mezon sifatida qo'llashimiz zarur.

Quvvatlardan foydalanish darajasini oshirish va yangilarini ishga tushirish hisobiga 572 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlarini, qo'shimcha ravishda ishlab chiqarish ta'minlandi, tarmoqning eksport salohiyati 95 mln. AQSH dollarga ko'paydi.

Shu bilan birga tarmoq korxonalarida olib borilayotgan ishlar etarli emas, bunda ichki imkoniyatlardan to'liq foydalanilmayapti.

Bugungi kunda to'qimachilik korxonalaridagi mavjud quvvatlarda, 576 ming tonna paxta tolasini qayta ishlash, 490 ming tonna kalava ip ishlab chiqarish, 296 mln kv. m. ip gazlama, 271,2 mln. dona tayyor mahsulotlar, 2393 tonna ipak tolasini ishlab chiqarishga to'liq imkoniyatlar bor.

Olib borilgan chuqur tahlil kompaniya korxonalarida ichki rezervlar to'liq ishlatilmayotganini, bor imkoniyatlar ishga solinmayotganini, ko'p korxona rahbarlari o'z vazifasiga o'ta mas'uliyatsiz bo'layotganini ko'rsatdi.

Kalava ishlab chiqarish bo'yicha mavjud quvvatlar bu davrda 59.6 % ga ishlatilgan, ip gazlama bo'yicha – 35.8 % ga, noto'qima matoda – 34,8 % ga, trikotaj matoda – 56.7 % ga, trikotaj mahsulotlarda – 67.9 % ga, paypoq

mahsulotlarida – 55.1 % ga, ipak tolasida – 53.4 % ga va ipak gazlama bo'yicha esa – 52.9 % ga ishlatilgan xolos.

To'qimachilik tarmog'ining 33 ta korxonasi, yoki 33 % korxonasi kalava ip ishlab chiqarish sur'atlarini bajarmaganlar, ular tomonidan 17.5 ming tonna ip kalava kam ishlab chiqarilgan, 17 ta korxona ip gazlama ishlab chiqarish sur'atlarini pasaytirganlar, ular tomonidan 47,4 mln.kv.metr gazlama kam ishlab chiqarilgan, natijada o'sish sur'ati 94.3 % ni tashkil etdi.

«O'zbekengilsanoat» AJ tashkiliy tuzilmasi tarkibiga 4 ta tarmoq kiradi – to'qimachilik, tikuvchilik, trikotaj va chinnisozlik. Ularni boshqarish kompaniya kengashi va boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi. «O'zbekengilsanoat» AJning kelgusidagi innovatsion strategiyalari quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

- mavjud korxonalarni texnik va texnologik qayta qurollantirish va yangi yuqori texnologik ishlab chiqarishni tashkil etish. Respublika miqyosida mahalliy xomashyolarni (paxta tolasi, pilla, xom ipak) qayta ishlash darajasini oshirish, hamda raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish;

- birinchi navbatda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar bilan eksport hajmini va ichki bozorni to'ldirish darajasini keskin yuksaltirish. Yuqori texnologiyali mahsulot eksporti hajmini kengaytirish;

- hududlarda tikuvchilik va boshqa loyihalar evaziga yangi ish o'rinlarini tashkil etish.

Bugungi kunda «O'zbekengilsanoat» aksiyadorlik jamiyati tarkibiga kirgan korxonalar tashqi bozorga kalavadan tortib tayyor buyumlargacha bo'lgan keng turdagi mahsulotlar etkazib berish imkoniyatiga ega. Zamonaviy dizayn va yuqori sifat ko'rsatkichlari ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini ta'minlab, ularning xalqaro bozorda munosib o'rin egallash imkonini bermoqda. Ayni paytda «O'zbekengilsanoat» aksiyadorlik jamiyati korxonalari o'z mahsulotlarini dunyoning 55 mamlakatiga eksport qilmoqda va bu ko'lam muntazam kengaytirilmoqda.

2015 yilda “O‘zbekengilsanoat” AJ tizimidagi korxonalar tomonidan 3 164,3 trln. So‘mlik sanoat mahsulotlar ishlab chiqarilgan, shundan 1 042,0 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilingan (2.2.2-jadval).

2.2.2-jadval

“O‘zbekengilsanoat” AJning 2015-2016 yillardagi asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar nomi	O‘lchov birligi	2015 y.		2016 y.	
		hisobot	O‘shish sur‘ati, %	prognoz	O‘shish sur‘ati, %
1	2	3	4	5	6
Sanoat mahsuloti hajmi	trln. so‘m	3 164,3	122,1	3 670,6	116,0
<i>Shu jumla, natural shaklda:</i>					
Yigirilgan ip	ming tn	307,2	119,4	348,6	113,5
gazlamalar	mln. kv.m	182,9	118,1	189,1	103,4
To‘qima bo‘z	Ming tn	53,4	111,9	59,8	112,0
tikuv-trikotaj mahsulotlar	mln. dona	184,7	144,3	222,5	120,5
Paypoq mahsulotlari	mln. juft	38,9	133,2	44,2	113,6
Xalq iste‘mol mollari	mlrd. so‘m	1 329,1	125,9	1652,0	124,3
Umumiy tovar mahsulotida tayyor mahsulotlar ulushi	%	42,0	-	45,0	-
Eksport	mln. AQSH doll.	1 042,0	104,0	1 145,0	109,9
Eksportning umumiy xajmida tayyor mahsulotlar eksportining ulushi	%	37,0	-	42,0	-
Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar	mln.so‘m	14 610,0	102,3	19 688,0	134,8
Eksport	mln. AQSH doll.	1 042,0	104,0	1 145,0	109,9
Eksportning umumiy xajmida tayyor mahsulotlar eksportining ulushi	%	37,0	-	42,0	-
Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar	mln.so‘m	14 610,0	102,3	19 688,0	134,8
Xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasida imzolangan shartnomalar xajmi	mln. so‘m	56 199,6	194,0	129 774,0	230,9
	ming doll.	423 300,0	144,0	454 316,0	107,3
Amalda bajarilgan:					
Mahsulot sotib olish bo‘yicha shartnomalar (ichki bozor)	mln. so‘m	56 432,5	192,0	-	-
	%	100,7	-	-	-
Eksport shartnomalari	ming.doll.	434 157,5	102,0	-	-
	%	102,6	-	-	-
O‘zlashtirilgan investitsiyalar, jami	mln. doll.	179,4	102,9	190,2	106,0
<i>Shu jumladan:</i>					
To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar	mln. doll.	101,5	125,0	117,0	115,3

Manba: “O‘zbekengilsanoat” DAK hisobotlari asosida tuzilgan

To'qimachilik va tikuvchilik trikotaj korxonalari o'z mahsulotlarini MDH mamlakatlari, Xitoy Xalq Respublikasi, AQSH, Kanada va qator arab davlatlari bozorlariga etkazib bermoqda. Buning samarasida o'tgan yili 157,1 ming tonna kalava, 33 million kvadrat metr ip gazlama, 4,9 ming tonna trikotaj polotno, 148,1 million dona tikuvchilik trikotaj buyumlari, 9,1 million juft paypoq eksport qilindi.

Bugungi kunda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xalqaro bozorlarga chiqarish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va xorijiy sheriklarni jalb etish «O'zbekengilsanoat» aksiyadorlik jamiyatining muhim vazifalaridan biridir. Bularning barchasi mamlakatimiz engil sanoatini sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish imkonini beradi.

Hozirgi kunda «O'zbekengilsanoat» AJning engil sanoat tizimini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirayotgan ustuvor vazifalari quyidagilardan iborat:

- tashqi va ichki bozorlarda marketing tarqiqotlari o'tkazish, to'qimachilik, trikotaj, tikuvchilik va chinnisozlik sanoati mahsulotlariga bo'lgan talab dinamikasini o'rganish va istiqbollarini aniqlash;
- respublika iste'mol bozorlarini yurtimizda ishlab chiqariladigan yuqori sifatli, aholi ehtiyojiga mos keladigan engil sanoat mahsulotlari bilan to'ldirishni ta'minlash;
- tarmoqning eksport salohiyatini mustahkamlash, kompaniya tarkibidagi korxonalar tomonidan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va ularni tashqi bozorlarga olib chiqishni tashkil etish;
- paxta tolasidan, boshqa turdagi xom ashyo va materiallar manbaidan kompleks foydalanish va uni mukammal qayta ishlash, hozirda import orqali olib kelinayotgan butlovchi buyumlar va furnituralarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;
- tarmoqda yagona texnik va investitsion siyosatni olib borish, to'qimachilik, trikotaj va tikuvchilik sanoati korxonalari o'rtasida o'zaro

munosabatlarni rivojlantirish, mahalliy xom ashyolardan respublikaning aholi zich joylashgan xududlarida mahsulot ishlab chiqarishni amalga oshirish;

- zamonaviy texnologiyalarni joriy etish uchun chet-el investitsiyalarini to'g'ridan-to'g'ri jalb qilish, yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, tarmoq korxonalarini texnik qayta jixozlash va modernizatsiyalash.

«O'zbekengilsanoat» davlat aksiyadorlik kompaniyasi 2015-2019 yillarda tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish chora-tadbirlari dasturiga binoan 79 ta loyihani amalga oshirishni rejalashtirmoqda.

Shundan 58 ta loyiha xorijiy sheriklar bilan hamkorlikda yangi korxonalar tashkil etish, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha amalga oshirilsa, yana 21 tasi chet el investitsiyalarini jalb etgan holda amaliyotga tatbiq etilishi kutilmoqda.

Eksport geografiasini kengaytirish va yangi salohiyatli tashqi bozorlarni topish borasida bevosita hamda O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining Tashqi savdo kompaniyalari bilan hamkorlikda olib borilgan ishlar natijasida Lotin Amerikasi davlatlari, Finlyandiya, Kanada, Saudiya Arabistoni, Marokash, Tunis, Afrikaning boshqa davlatlari, SHveysariya, Avstriya, Vengriya va boshqa davlatlarga engil sanoat mahsulotlarini eksport qilishga erishildi.

Muqobil bozorlar aniqlash maqsadida jamiyat korxonalari Rossiya, Boltiq bo'yi respublikalari, Turkiya hamda Malayziyada o'tkazilgan engil sanoat mahsulotlari ko'rgazmalari va yarmarkalarida ishtirok etdi. Hozirda yirik eksportyor korxonalar tomonidan Evropa ittifoqi, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi va Osiyo davlatlarida 50 dan ziyod dillerlik tuzilmalari faoliyat yuritmoqda.

Tarmoq eksport salohiyatini o'stirish borasida amalga oshirilayotgan loyihalar ham e'tiborga molikdir (2.2.3-jadval).

2.2.3-jadval

«O‘zbekengilsanoat” AJga modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta qurollantirish bo‘yicha kiritilayotgan investitsiya loyihalari natijasida eksport salohiyatining o‘sishi, mln. AQSH doll.

Loyiha nomi	Loyihaning mo‘ljaldagi qiymati	Moliyalashtirish manbalari			Eksport salohiyati	
		Xususiy mablag‘lar	Tijorat banklari kreditlari	TTXI va kreditlar	Qiymati	Loyiha qiymatiga nisbatan salmog‘i, %
“Nanyang Red Cotton Angel Textile” XK	9,0	-	-	9,0	7,0	77,8
“Forij tekstil” QK	4,77	0,07	-	4,7	3,0	62,9
“Bultekst Evrostar” XK	0,32	-	-	0,32	1,0	312,5
“Elnur end Ruslan tekstil” XK	0,52	-	-	0,52	0,7	134,6
“Altentekst” XK	0,15	-	-	0,15	0,8	533,3
“Nafis libos” MCHJ	1,6	0,3	1,3	-	1,8	112,5
“BF Prodakshn” XK	1,6	0,4	-	1,2	2,0	125,0
“Baytekst Tidjaret” XK	6,63	-	-	6,63	8,0	120,7
“Kottontekst” QK quvvatini oshirish	1,0	1,0	-	-	2,0	200,0
“Bog‘ottekst” QK quvvatini oshirish	0,72	0,72	-	-	1,5	208,3
Jami:	26,58	2,49	1,3	22,52	27,3	102,7

Manba: “O‘zbekengilsanoat” DAK hisobotlari asosida tuzilgan

Jadvaldan ko‘rinadiki, «O‘zbekengilsanoat” AJga modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta qurollantirish bo‘yicha kiritilayotgan investitsiya loyihalari umumiy qiymatining 84,7 % (22,52 mln. AQSH doll.)ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar, 9,4 % (2,49 mln. AQSH doll.)ni xususiy mablag‘lar, 4,9 % (1,3 mln. AQSH doll.)ni tijorat banklari kreditlari tashkil etgan. YAngi korxonalarning ishga tushirilishi hamda ishlab chiqarish quvvatlarining kengaytirilishi natijasida eksport salohiyati 27,3 mln. AQSH doll.ga yoki loyiha qiymatiga nisbatan 102,7 %ga oshishi ko‘zda tutilmoqda. Ayniqsa, loyiha qiymatiga nisbatan eksport salohiyati “Altentekst” XKda 5,3 baravar, “Bultekst Evrostar” XKda 3,1 baravar, “Bog‘ottekst” QK va “Kottontekst” QKda 2 baravar oshishi e‘tiborli hisoblanadi. Bu borada eng past ko‘rsatkich – “Forij tekstil” QKda 62,9% ni tashkil etadi. Bu o‘rinda mahsulotning xususiyatini ham e‘tiborga olish lozim. Zero, trikotaj buyumlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijga chiqarilsa, ip kalavalarining asosiy qismi mamlakat ichida ham qayta ishlanishi mumkin.

Ma’lumki, to‘qimachilik sanoatida eksportbop raqobatdosh mahsulotlar tayyorlashga yo‘naltirilgan, yakuniy ishlab chiqarish shakliga ega bo‘lgan yangi,

zamonaviy to‘qimachilik komplekslarini rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etishi zarur. Respublika hukumati tomonidan belgilangan vazifalarga ko‘ra yaqin yillarda paxta tolasini o‘zimizda qayta ishlash hajmini 2 barobardan ko‘proq, kalava ishlab chiqarishni 2,6 barobar, tayyor trikotaj va tikuvchilik buyumlarini 3 barobar, to‘qimachilik sanoati mahsulotlari eksportini 2 barobar oshirish talab etiladi.

Amalga oshirgan tadqiqotlarimiz natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, «O‘zbekengilsanoat” AJ bo‘yicha ishlab chiqariladigan mahsulot turlari (nomenklaturasi)ning umumiy hajmini 141 birlikka, mahsulotlar turi (nomenklaturasi)ning umumiy hajmini 16 birlikka va ishlab chiqariladigan mahsulotlar umumiy hajmida yangi mahsulotlar turining ulushini 6,8 foizga oshirish ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishda ko‘zlangan darajaga erishish imkonini berdi (2.2.4-jadval).

2.2.4-jadval

«O‘zbekengilsanoat” AJ bo‘yicha ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish darajasini baholash ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar nomlari	O‘lchov birligi	2010	2011	2012	2013	2014
1	2	3	4	5	6	7	8
1.	Ishlab chiqariladigan mahsulot turlari (nomenklaturasi)ning umumiy hajmi	birlik	87	99	111	125	141
2.	Mahsulotlar turlari (nomenklaturasi)ning umumiy hajmi	Birlik	2	12	12	14	16
3.	Ishlab chiqariladigan mahsulotlar umumiy hajmida yangi mahsulotlar turlarining ulushi	%	2,3	12,1	10,8	11,2	11,3
4.	YAngi mahsulot turlarining umumiy qiymati	mlrd. sum	45,6	67,2	82,3	104,5	125,8
5.	Jami – mahsulot ishlab chiqarishning umumiy qiymati	mlrd. sum	1 169,5	1 508,7	1 643,5	1 744,9	1 862,7

Sohada ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash investitsiyalarni jalb qilishning qo‘shimcha imkoniyatlarini yaratib berish va moliyaviy resurslardan

oqilona foydalanish asosida mahalliy korxonalarni ichki va tashqi bozorlarda raqobatlasha olish imkonini beradi.

Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash asosida to'qimachilik sanoati korxonalarini jahon texnologik zanjiriga qo'shilishini ta'minlash, bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb qilgan holda eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish to'qimachilik mahsulotlari mahalliy bozorini egallashning qulay strategiyasi hisoblanadi.

II bob bo'yicha qisqacha xulosalar.

1. Kichik biznes korxonalarida mahsulot sifatini oshirish orqali raqobatbardoshligini ta'minlash va eksport salohiyatini kengaytirish yo'llaridan biri zamonaviy texnika va ilg'or texnologiyalar hamda sifat menejmentini joriy etish orqali bajariladi.

2. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish, ularning eksport salohiyatini kengaytirish bugungi kunda respublika korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish bilan bevosita bog'liqdir. Chunki hozirgi globallashtirish sharoitida iste'molchi nafaqat ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sifat sertifikatga ega bo'lishini, balki mahsulotning sifati va ishonchliligiga ham kafolat talab qilmoqda.

3. Sifat jarayonini boshqarish nafaqat ishlab chiqarishda, ya'ni xomashyoni qabul qilishdan tayyor mahsulotni qadoqlashgacha bo'lgan, balki hujjatlar aylanishi, ichki audit, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, xaridorlarni fikr va tavsiyalarini hisobga olish kabi muhim omillarni nazorat qilishni o'z ichiga oldi. YAKunlovchi bosqichda, ya'ni sertifikatsiyalashda sifatni boshqarishni xalqaro standartlar talabiga mos ravishda amalga oshirilayotganligi tasdiqlanadi. Yuqorida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish kichik biznes korxonalari tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishi va uning istiqbolida, eksport salohiyatini ko'paytirish imkonini beradi.

4. Bugungi kunda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xalqaro

bozorlarga chiqarish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va xorijiy sheriklarni jalb etish «O‘zbekengilsanoat» aksiyadorlik jamiyatining muhim vazifalaridan biridir. Bularning barchasi mamlakatimiz engil sanoatini sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish imkonini beradi.

III-BOB. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish yo'llari

3.1. O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda tarkibiy o'zgarishlar siyosatining roli

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish, shu asosda respublikamiz fuqarolarining munosib turmush kechirishlarini ta'minlash maqsadida muhtaram Yurtboshimiz rahnamoligida har tomonlama chuqur va puxta o'ylangan iqtisodiy islohotlarning izchil amalga oshirilishi va buning samarasi o'laroq so'nggi yillarda barqaror yuqori o'sish sur'atlariga erishib kelayotganligimizni alohida ta'kidlab o'tish joiz. Chunki O'zbekistonda 2004–2014 yillar davomida, ya'ni jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozigacha va undan keyingi yillar mobaynida YAIMning o'rtacha yillik o'sishi 8,1 foizni tashkil etgani dunyoning sanoqli mamlakatlaridagina qayd etilgan noyob hodisa bo'ldi.

Albatta, iqtisodiy o'sishning o'zi birdan-bir maqsad emas, lekin u aholining umumiy turmush darajasi – o'rtacha umr ko'rish davomiyligining o'sishi, sifatli tibbiy xizmat va ta'limning omma imkoniyati doirasida bo'lishi, ish kuni davomiyligining qisqarishi, fuqarolar xavfsizligi va boshqalar bilan mustahkam bog'liq. Mamlakatimizdagi ijtimoiy farovonlik va rivojlanishning bugungi kundagi holati haqida gap ketganda, Buyuk Britaniyaning nufuzli The Legatum Institute tahliliy markazi tomonidan har yili chop etiladigan "Taraqqiyot indeksi"ning 8 ta yo'nalish – iqtisodiyot, tadbirkorlik, boshqaruv, ta'lim, sog'liqni saqlash, xavfsizlik, shaxs erkinligi, ijtimoiy kapital bo'yicha baholanadigan 2010 yildagi reytingida O'zbekiston dunyoning 142 ta mamlakat ichida 76-pog'onani egallagan bo'lsa, 2014 yilga kelib 19 pog'ona ilgarilab, 57-o'rinni zabt etdi⁴³.

Bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlari iqtisodiyotiga hali-hamon salbiy ta'sir ko'rsatayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining davom etayotgani, rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarish hajmi yashirin

⁴³ <http://www.prosperity.com/#!/ranking>

imkoniyatlarining kamayishi, kutilmaganda neftga bo'lgan narxlarning birdan tushib ketishi, mamlakatimiz eksportining daromadlari qismida sezilarli og'irlikka ega bo'lgan gaz, paxta, mis, mineral o'g'itlar va oltinning xalqaro prognoz narxlarida pasayish kutilayotganligi, qolaversa Rossiyadagi iqtisodiy qiyinchiliklar ko'ndalang turgan bir sharoitda mamlakatimizda iqtisodiy o'sishning o'rta va uzoq istiqbolda yuqori sur'atlarini saqlab qolish iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni yanada jadallashtirish, mavjud barcha imkoniyatlarni safarbar etishimizni har doimgiga qaraganda ko'proq taqozo etmoqda.

O'tgan yil yakunlariga ko'ra, iqtisodiyotimiz va uning etakchi tarmoqlarini rivojlantirish borasida barqaror yuqori o'sish sur'atlariga erishildi. Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,1 foiz, bozor xizmatlari ko'rsatish hajmi 15,7 foiz, sanoat 8,3 foiz, qishloq xo'jaligi 6,9 foizga oshdi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qariyb 70 foizini yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor tovarlar tashkil etdi. Inflyasiya darajasi yil yakunlari bo'yicha 6,1 foizni tashkil etdi. O'tgan yili soliq yuki 20,5 foizdan 20 foizga, daromad solig'i stavkasi esa 9 foizdan 8 foizga kamaytirilgan bo'lsa-da, davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,2 foiz profitsit bilan bajarildi⁴⁴. Shuningdek, Rossiyadagi iqtisodiy pasayish va rublning jiddiy devalvatsiyasiga bevosita bog'liq ravishda sof pul o'tkazmalari 18,9 foizga kamayib, 2013 yil YAIMdagi 6,4 foizdan 2014 yil YAIMda 5,1 foizni tashkil qildi (3.1.1-jadval). 2014 yilda iqtisodiyotimizga jalb qilingan investitsiyalarning hajmi 9,6 foizga o'sdi va 14,6 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi. Bunda jami kapital qo'yilmalarning 21,2 foizdan ortig'i yoki 3 mlrd. dollardan ziyodini xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil qildi. Ularning to'rtidan uch qismi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir.

⁴⁴ Каримов И. 2015 йилда иқтисодиётимизда туб таркибий ўзгаришларни амалга ошириш, модернизация ва диверсификация жараёнларини изчил давом эттириш ҳисобидан хусусий мулк ва хусусий тадбиркорликка кенг йўл очиб бериш – устувор вазифамиздир. <http://uza.uz/oz/politics/-tub-tarkibiy-zgarishlarni-amalg-17-01-2015>

3.1.1-jadval

O'zbekiston: asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar⁴⁵

	2011	2012	2013	2014	2015*
YAIM o'sishi, %	8,3	8,2	8	8,1	7,6
YAIM aholi jon boshiga, joriy AQSH dollarida	1545	1719	1878	2038	2146
Aholi (o'rtacha yillik), million	29,3	29,8	30,2	30,8	31,1
YAlpi investitsiyalar asosiy kapitalga, YAIMda %	23,5	22,8	23,2	23,3	26,1
Inflyasiya (ras., INI, yil ohiriga), %	7,3	7	6,8	6,1	6,3
Joriy operatsiyalar saldos, YAIMda %	5,8	1,2	1,9	1,6	0,3
Fiskal balans, YAIMda %	8,8	5,1	3,8	2,6	2
To'g'ridan-to'g'ri xor. investitsiyalar (sof), YAIMda %	3,6	1,7	1,7	1	1
Pul o'tkazmalari (sof), YAIMda %	5,9	6,8	6,4	5,1	3,6
Tashqi qarz, YAIMda %	18,6	17,3	16,5	17	17,1

Jahon iqtisodiyoti tarixiga nazar tashlar ekanmiz, haqiqatdan ham bugun biz yashayotgan dunyoda o'zining sanoat tarmog'ini takomillashtirmasdan, ushbu sohada yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarish va ish o'rinlarini tashkil qilmasdan, eksportga yo'naltirilgan izchil tashqi iqtisodiy siyosat olib bormasdan, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning yuksak bosqichiga erishgan biror-bir mamlakat bo'lmaganiga takror va takror ishonch hosil qilamiz. Ushbu voqelikning mohiyati va ahamiyatini chuqur tasavvur etgan holda, mamlakatimizda olib borilgan sanoatlashtirish siyosati doirasida ko'rilgan amaliy chora-tadbirlar natijasida, 2007 yilga kelib mamlakatimiz YAIMda birinchi marta sanoatning ulushi qishloq xo'jaligi ulushidan oshirildi. Oxirgi 14 yil ichida sanoatning o'rtacha yillik o'sishi qariyb 9 foizni va ayni shu davr mobaynida ushbu tarmoqning mamlakatimiz YAIMdagi ulushi 10 foiz punktga oshib, 2014 yilda 24,1 foizni tashkil etdi.

⁴⁵ Жаҳон Банки, <http://www.worldbank.org/content/dam/Worldbank/document/Uzbekistan> *прогноз
<http://www.worldbank.org/content/dam/Worldbank/document/Uzbekistan>

Istiqbolda mamlakatimiz homashyo tovarlari eksportiga jahondagi narxlarning pasayishi va savdo hamkorlari, ayniqsa Rossiyadagi iqtisodiy tushkunlikning chuqurlashuvi kutilayotganligi yalpi talabni qo'llab-quvvatlash va yangi ish o'rinlarini yaratish uchun davlat xarajatlarini oshirish, soliq yukini kamaytirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida uning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirishga, boshqacha aytganda har tomonlama chuqur va puxta o'ylangan izchil soliq-byudjet va pul-kredit siyosatiga jiddiy ehtiyoj tug'dirmoqda. Xalqaro valyuta fondining (XVF) 2015 yil iyuldagi "Jahon iqtisodiyotining rivojlanish istiqbollari" byulletenida qayd etilgan prognozlarga ko'ra, joriy yilda Rossiyada iqtisodiy o'sish 3,4 foizga kamayishi, Xitoyda esa oldingi yilga nisbatan 0,6 foiz punktga pasayib 6,8 foizni tashkil qilishi kutilmoqda⁴⁶. 2015 yilda gazning xalqaro narxi 16 foizga, paxta narxi 13 foizga, mis va meneral o'g'itlar narxi 5 foizga, oltin narxi 2 foizga pasayishi prognoz qilinmoqda⁴⁷.

Mamlakatimiz soliq-byudjet ko'rsatkichlariga to'xtalganda, eng avvalo, davlat kapital xarajatlari etarlicha barqaror darajada qolayotganligiga e'tibor qaratmoqchimiz. 2013 yilda uning YAIMdagi ulushi 4,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2014 yilda 4,5 foizgacha oshirildi. 2014 yilda sog'liqni saqlashga yo'naltirilgan davlat xarajatlarining YAIMdagi ulushi esa 3 foizni tashkil etib, bu bo'yicha quyi pog'onadagi o'rta daromadli mamlakatlar YAIMlarida 1,7 foiz bo'lgan o'rtacha ko'rsatkichdan ancha yuqori bo'ldi. O'tkan yili O'zbekiston YAIMda 7,5 foiz miqdordagi ta'limga yo'naltirilgan davlat xarajatlari bilan Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasi mamlakatlarining ayni shu ko'rsatkichlaridan yuqori bo'ldi va bu bo'yicha Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti mamlakatlari bilan tenglashdi.

Shuni alohida e'tirof etish kerakki, O'zbekistonda so'nggi yillarda muntazam ravishda davlat byudjeti, tashqi savdo va to'lov balansining ijobiy saldosi qayd etilmoqda. Shunga muvofiq ravishda davlatning tashqi qarzi izchil pasayib, 2014 yilda YAIMda 17 foizni tashkil qildi. Xalqaro zaxiralarning yuqori

⁴⁶http://www.worldbank.org/content/dam/Worldbank/GEP/GEPcommodities/Price_Forecast_20150722.pdf

⁴⁷ <http://data.worldbank.org/about/country-and-lending-groups>

darajada ekanligini hisobga olib, davlat o'rta muddatli istiqbolda ichki bozordan qarz jalb qilish tarafdori emas. Eng ahamiyatlisi, O'zbekiston 2014 yildagi tovar va xizmatlar importining 14 oyiga etadigan xorijiy aktivlari bilan dunyoda sof kreditor bo'lib qolmoqda.

Hukumat soliq bazasini kengaytirish va soliq yukini kamaytirishga qaratilgan strategiyasini izchil amalga oshirib kelmoqda. Jumladan, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va soliq qonunchiligiga rioya qilish darajasini oshirish maqsadida umumiy soliq tushumlarining YAIMdagi ulushi 2000 yildagi 26,2 foizdan 2014 yil YAIMda 20,1 foizga etdi. Jismoniy shaxslar daromadlariga soliqning yuqori stavkasi 2000 yildagi 40 foizdan 2015 yil 23 foizgacha pasaytirildi. 2015 yildan boshlab eng kam ish haqining bir barobaridan oshmaydigan daromadlarga soliq stavkasi nolgacha pasaytirildi. Tijorat banklari uchun esa oldingidek 15 foizli stavka saqlab qolindi⁴⁸.

Mamlakatimiz Markaziy banki (MB) tomonidan olib borilayotgan pul-kredit siyosati yalpi talabni qo'llab-quvvatlash va inflyasion bosimni ushlab turishga qaratilmoqda. Inflyasiya sur'ati doimiy pasayib borayotganini hisobga olib, MB qayta moliyalashtirish stavkasini 2013 yildagi 12 foizdan 2014 yil yanvarda 10 foizga va joriy yil yanvar oyida 9 foizgacha tushirdi. Pul massasining (M2) o'sishi 2013 yildagi 22,5 foizdan 2014 yil 20 foizgacha kamaytirildi⁴⁹. Ammo iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridagi loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga va real sektordagi investitsion faollikning oshishini yanada rag'batlantirish maqsadida kreditlarning o'sishi, avvalgidek, qariyb 30 foizli yuqori darajada saqlab qolindi. MB eksportni rag'batlantirish maqsadida so'mning AQSH dollariga nisbatan nominal ayirboshlash kursini muntazam pasaytirib borish siyosatini davom ettirmoqda. Inflyasion bosimni pasaytirish maqsadida MB tomonidan ortiqcha likvidlikni tartibga solish, to'lovlar ustidan qat'iy nazorat

⁴⁸ Постановление Президента Республики Узбекистан “О прогнозе основных макроэкономических показателей и параметрах Государственного бюджета Республики Узбекистан на 2015 год”. 4 декабря 2014 г., № III-2270. http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=2516171

⁴⁹ World Bank Group – Uzbekistan Partnership: Country Program Snapshot, April 2015, 5 p.

choralarini ko'rish, naqd pulsiz to'lovlar tizimini rag'batlantirish, qishloq infratuzilmasini yaxshilash va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish, shuningdek, ba'zi import qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlariga aksiz soliqlarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar muntazam amalga oshirib kelinmoqda.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekistondagi joriy makroiqtisodiy vaziyat ikkita asosiy o'ziga xos xususiyatga ega: birinchisi, makroiqtisodiy barqarorlik; ikkinchisi, iqtisodiy o'sishning yuqoriligi.

Hozirda mamlakatimiz hukumati, tahliliy markazlar, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi va Jahon banki hamkorligida 2030 yilgacha O'zbekiston iqtisodiyotida tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan strategik reja ishlab chiqilmoqda. Ushbu ko'p tarmoqli faoliyat uzoq muddatli yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini muttasil oshirib borishga kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan muhim yo'nalishlarda, jumladan makroiqtisodiy boshqaruv, savdo siyosati, infratuzilma, energetika, tadbirkorlik muhiti, mehnat va moliya bozorlarida amalga oshirilishi kerak bo'lgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Undan ko'zlangan asosiy maqsad O'zbekiston 2030 yilga borib aholi jon boshiga o'rta daromadli mamlakatlar guruhining yuqori segmentidan joy olishidir. 2015 yil 1 iyul holatiga ko'ra, dunyo mamlakatlari aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi milliy daromadlari (Jahon bankining Atlas usuli bo'yicha hisoblangan, AQSH dollarida) ko'ra quyidagicha tasniflanadi⁵⁰:

- * Past daromadli -(1 045 AQSH dollari yoki undan kam)
- * Quyi o'rta daromadli-(1 046 AQSH dollari dan 4 125 AQSH dollari gacha)
- * Yuqori o'rta daromadli- (4 126 AQSH dollari dan 12 735 AQSH dollari gacha)
- * Yuqori daromadli-(12 736 AQSH dollari yoki undan ortiq)

⁵⁰ <http://www.hsbc.com/~media/HSBC-com/about-hsbc/advertising/pdfs/the-world-in-2050.pdf>

Bugungi kunda Jahon bankining tasnifi bo'yicha dunyoda past daromadli mamlakatlar soni 31 ta, quyi o'rta daromadlilar 51 ta, yuqori o'rta daromadlilar 53 ta, yuqori daromadlilar esa 80 tani tashkil etmoqda. Jahon banki statistikasi bo'yicha 2014 yilda O'zbekistonning aholi jon boshiga YAMD 2 090 AQSH dollarini tashkil etib, quyi o'rta daromadli mamlakatlar guruhida bormoqda.

Demak, mamlakatimiz 2030 yilga borib yuqori o'rta daromadli mamlakatlar qatoridan joy olishi uchun bugungi kundagi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAMD hajmini ikki barobardan ko'proq oshirish kerak. O'zbekistonda 2004–2014 yillardagi aholi jon boshiga YAMDning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 7 foizni tashkil etdi. Agar shunday o'sish sur'ati 10 yil ichida ushlab turilsa, 2025 yilgacha aholi jon boshiga YAMD hajmi qariyb ikki barobar oshishi mumkin. Bundan ma'lum bo'ladiki, hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilayotgan 2030 yilga mo'ljallangan yuksak maqsadlar – erishish mumkin bo'lgan imkoniyatimiz doirasidagi marralardir.

2011 yil 4 yanvarda dunyodagi eng ulkan moliyaviy konglomeratlardan biri HSBC Holdings plc, «Eych-es-bi-si» banki (Forbes jurnalining 2011 yildagi reytingi bo'yicha kapitallashuviga ko'ra, Evropadagi eng katta va jahon miqyosida ikkinchi o'rindagi kompaniya) “Dunyo 2050 yilda” deb nomlangan prognoz ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan tahliliy ishlanmani chop etgan edi⁵¹. Undagi prognozlar jahon mamlakatlari iqtisodiyotning o'sha paytdagi rivojlanish darajasiga asoslangan bo'lib, eng rivojlangan davlatlarni quvib o'tish uchun rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda mavjud imkoniyatlar va zarur asosiy omillarni, jumladan aholi jon boshiga joriy daromad, qonun ustuvorligi, demokratiya, ta'lim darajasi va demografik o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Ushbu loyiha iqtisodiy islohotlarning izchil davom etishi, turli nizo va urushlar chetlab o'tilishi, iqtisodiyotning tashqi savdo va kapital uchun ochiq qolishini ko'zda tutadi.

⁵¹ <http://www.growthcommission.org>.

Tahlilchilar farazlariga ko'ra istiqbolda eng yuqori reytingga ega bo'lishi mumkin bo'lgan 100 ta mamlakatni iqtisodiy o'sish sur'atlari bo'yicha uchta toifaga bo'lishdi:

1. Tezkor o'sish – o'rtacha yillik o'sish 5 foizdan yuqori bo'lishi kutilayotgan.
2. O'sish – o'rtacha yillik o'sish 3 va 5 foiz oralig'ida bo'lishi kutilayotgan.
3. Barqaror – yillik o'racha o'sish 3 foizdan kam bo'lishi kutilayotgan mamlakatlar.

Shunday qilib, rivojlanishning mavjud holati past darajada bo'lgan, ammo qisqa davr ichida ulkan yangilanishlarga erishgan va yaqin kelajakda tezkor o'sish sur'atlari kutilayotgan birinchi toifadagi mamlakatlar soni 26 tani tashkil etagan. Ular yana ko'p yillar davomida dunyodagi ilg'or texnologiyalarni "ko'chirib o'tkazish" imkoniyatlariga ega. Xitoy, Hindiston, Fillipin va Malayziyadan tashqari, ushbu guruhga Bangladesh, Markaziy Osiyo mintaqasida O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Lotin Amerikasidagi Peru va Ekvador, YAqin SHarqdagi Misr va Iordaniya va boshqa mamlakatlar kiradi.

HSBC bankining prognoziga ko'ra, 2050 yilga borib, O'zbekiston YAIMi (2000 yildagi o'zgaras AQSH dollari bo'yicha) 314 milliardni, aholi jon boshiga yalpi daromad 8 859 dollarni tashkil etadi va iqtisodiyot hajmi bo'yicha 22 pog'ona ilgarilab dunyoda 51-o'ringa chiqadi.

Bunday natijalarga erishish uchun O'zbekistonda YAIMning o'rtacha yillik o'sishi 2010-2020 yillarda 8,2 %, 2020-2030 yillarda 6,9 %, 2030-2040 yillarda 6,1 %, 2040-2050 yillarda 5 % bo'lishi prognoz qilingan. Shu davr ichida aholi jon boshiga daromadlar o'sishi 2010-2020 yillardagi 6,7 foizdan 2040-2050 yillarda 5,1 foizni tashkil etishi ko'zda tutilgan (3.1.2-jadval).

3.1.2-jadval

HSBC tomonidan ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlar

	Aholi jon boshiga daromad o'sishi prognozlari				YAIM o'sishi prognozlari			
	2010-20	2020-30	2030-40	2040-50	2010-20	2020-30	2030-40	2040-50
Ozorbayjon	6.1%	5.4%	4.8%	4.4%	7.0%	5.7%	5.0%	4.1%
Bangladesh	3.6%	4.4%	5.0%	5.5%	5.5%	5.5%	5.6%	5.5%
Xitoy	6.5%	5.7%	5.1%	4.6%	6.7%	5.5%	4.4%	4.1%
Hindiston	4.0%	4.5%	4.8%	5.1%	5.7%	5.6%	5.5%	5.2%
Indoneziya	3.0%	3.7%	4.2%	4.7%	4.3%	4.3%	4.3%	4.5%
Qozog'iston	5.9%	5.2%	4.7%	4.3%	6.1%	5.8%	4.9%	4.0%
Janubiy Koreya	3.7%	3.4%	3.1%	3.0%	3.7%	2.3%	1.8%	1.7%
Malayziya	5.4%	4.6%	4.1%	3.6%	7.1%	5.7%	4.7%	3.8%
Pokiston	1.5%	2.5%	3.5%	4.4%	4.0%	4.5%	4.9%	5.0%
Fillipin	6.1%	5.6%	5.2%	4.8%	8.4%	7.3%	6.6%	5.8%
Singapur	3.6%	3.2%	2.7%	2.3%	3.7%	2.1%	2.0%	2.1%
SHri Lanka	5.2%	5.2%	5.0%	4.9%	5.4%	5.3%	4.9%	4.3%
Tailand	3.7%	4.0%	4.1%	4.2%	4.0%	3.8%	3.8%	4.0%
Turkmaniston	6.1%	5.5%	4.9%	4.5%	7.7%	6.4%	5.6%	4.5%
O'zbekiston	6.7%	6.0%	5.5%	5.1%	8.2%	6.9%	6.1%	5.0%
Osiyo o'rtacha	4.8%	4.6%	4.5%	4.4%	5.8%	5.1%	4.7%	4.3%

Manba: HSBC

3.1.2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2050 yilgacha YAIMning o'rtacha yillik o'sish sur'ati bo'yicha eng yuqori prognoz ko'rsatkich Osiyo mamlakatlari ichida Fillipin va O'zbekistonda qayd etilishi kutilmoqda.

Umumiy qilib aytganda, keng ko'lamli dasturiy maqsad va vazifalar iqtisodiy o'sishning mavjud manbalarini topish, islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish, mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi yo'lida g'ov bo'lib turgan muammolarni echish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishni talab qiladi. Modomiki, o'z oldimizga qo'ygan yuksak maqsadlarimiz iqtisodiy o'sishga borib taqalar ekan, uning so'nggi yillarda mamlakatimizda erishilgan yuqori va barqaror sur'atlarini saqlab qolish, boshqacha aytganda yangi o'sish manbalarini topish

uchun shu yoʻlda yana qanday ishlarni amalga oshirish, nimalarga koʻproq eʼtibor qaratishimiz zarur? Bizningcha, eng avvalo, uzoq muddatli yuqori va barqaror oʻsish surʼatlarini qayd etgan mamlakatlar tajribasini chuqur oʻrganish, oʻzaro solishtirish va xulosalash yoʻli bilan aniq amaliy ahamiyatga ega boʻlgan, boshqacha aytganda “pishib etilgan” birlamchi muammolarni hal etishga qaratilgan puxta chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni hayotga tatbiq etish zarur.

Oʻsish va rivojlanish komissiyasi nomidan 2008 yilda Jahon banki chop etgan “Oʻsish toʻgʻrisida maʼruza: barqaror oʻsish va inklyuziv rivojlanish strategiyalari” oʻz rahbarlik faoliyati davomida katta tajriba orttirgan 19 ta etakchi (asosan rivojlanayotgan mamlakatlarning) va iqtisodiyot yoʻnalishi boʻyicha Nobel mukofotiga sazovor boʻlgan Maykl Spens va Bob Soloularning ikki yillik mashaqqatli mehnatlari mahsuli boʻlib, oʻsish strategiyalarining murakkab va ajralmas tarkibiy qismlari – byudjet taqsimoti, soliqlar, ayriboshlash kurslari, savdo va sanoat siyosati, boshqaruv, xususiylashtirish, pul-kredit siyosati boʻyicha umumiy yondashuvlarni oʻz ichiga oladi. Komissiyaning asosiy vazifasi tezkor iqtisodiy oʻsish va kambagʻallikni kamaytirish asosida yotuvchi siyosiy choralar va strategiyalarni toʻgʻri tushunishga koʻmaklashishdir.

“Oʻsish toʻgʻrisidagi maʼruza”ga koʻra, 1950 yildan buyon dunyoning faqat 13 ta mamlakatidagina iqtisodiy oʻsishning kamida 25 yil davomida yiliga oʻrtacha 7 % yoki undan yuqori oʻsish surʼatlari qayd etilgan (3.1.3-jadval). Ushbu guruhdan oʻrin olgan 13 ta mamlakatning (Botsvana, Braziliya, Gonkong (Xitoy), Indoneziya, Xitoy, Malayziya, Malta, Ummon, Koreya Respublikasi, Singapur, Tailand, Tayvan (Xitoy), YAponiya) rivojlanish tarixi yuqori barqaror oʻsish, baʼzilar ataganidek, izohlab va takrorlab boʻlmaydigan moʻʼjiza emas, balki muayyan shart-sharoitlar yaratilganda erishish mumkin boʻlgan hodisa ekanligini koʻrsatdi.

Bu haqda gap ketganda, komissiyaning ishchi guruhi aʼzosi, iqtisodiy oʻsishning ulkan nazariyotchi namoyondalaridan biri Pol Roumer Yaponiya yuqori surʼatlarda rivojlanayotganda, sharhlovchilar buni urushdan keyingi qayta tiklanish natijasida yuzaga kelgan alohida hodisa sifatida talqin etishganini, yana toʻrtta

Sharqiy Osiyo “yo‘lbarlari” – Gonkong, Tayvan, Koreya Respublikasi, Singapur ham shunday natijalarga erishganda, bu holatni ushbu mamlakatlarning kichik hajmdaligi sababli yuz bergani va bu mamlakatlarni Xitoy quvib o‘tganda esa, uni ulkan mamlakat ekanini pisanda qilib o‘tishganini eslatgan edi.

Ushbu mamlakatlardan faqat 6 tasi – Gonkong, Koreya, Malta, Singapur, Tayvan, Yaponiyada – iqtisodiyotning katta o‘sinh sur‘atlari daromadlarning yuqori darajasiga etguncha o‘sinhda davom etdi. Ammo qolganlari harakatlanish tezligini qisman yoki butunlay yo‘qotishi oqibatida ilg‘or mamlakatlarni quvib etishga erisha olmadi. Bunga eng achinarli misol tariqasida Braziliyani keltirishimiz mumkin.

3.1.3-jadval

Barqaror yuqori o‘sinh sur‘atlariga erishgan dunyodagi 13 ta mamlakat

Mamlakat	Yuqori o‘sinh davri	Aholi jon boshiga daromad	
		O‘sinh davri boshida	2005 yilda***
Botsvana	1960-2005	210	3 800
Braziliya	1950-1980	960	4 000
Gonkong (Xitoy)*	1960-1997	3 100	29 900
Indoneziya	1966-1997	200	900
Xitoy	1961-2005	105	1400
Koreya Res.*	1960-2001	1 100	13 200
Malayziya	1967-1997	790	4 400
Malta*	1963-1994	1 100	9 600
Ummon	1960-1999	950	9 000
Singapur*	1967-2002	2 200	25 400
Tailand	1960-1997	330	2 400
Tayvan (Xitoy)*	1965-2002	1 500	16 400
YAponiya*	1950-1983	3 500	39 600

Manba: Jahon banki

*Aholi jon boshiga daromad bo‘yicha industrial mamlakatlar darajasiga etgan **YAIMning yillik o‘rtacha o‘sishi etti yoki undan yuqori foizni tashkil etgan

***AQSH dollarining 2000 yildagi doimiy narxlarida

Shunday qilib, ishchi guruh a'zolari 13 mamlakatning rivojlanish tarixini chuqur tadqiq etish natijasida ularga xos bo'lgan beshta umumiy xususiyatni aniqlashdi (3.1.1-rasm):

1. Bu mamlakatlar jahon iqtisodiyotidan eng yuqori darajada foydalanishdi.
2. Ular makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdi.
3. Ular jamg'arma va investitsiyalarni eng yuqori darajaga olib chiqishdi.
4. Ular resurslar taqsimotini tartibga solish vazifasini bozorlarga topshirishdi.
5. Ular o'z oldilariga qo'ygan yuksak g'oyalarga sodiq omilkor ma'muriyatga ega bo'lishgan.

Ko'rib chiqilgan 13 ta mamlakat o'zlarining tezkor o'sish davrida jahon iqtisodiyoti holatidan eng yuqori darajada foydalanishdi. Bu aniqlangan umumiy xususiyatlarning eng muhimi va mazkur ma'ruzaning asosiy mazmunini tashkil qiladi. Bunday yuqori sur'atlarda o'sishning 1950 yillargacha imkoni bo'lmagan. U faqat jahon xo'jaligi birmuncha ochiqroq va mustahkamroq integratsiyalashuvi natijasidagina erishish mumkin bo'lgan hodisaga aylandi.

Yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan mamlakatlar ikkita narsadan yutishdi. Birinchidan, ular dunyoning ilg'or mamlakatlaridagi g'oyalar, texnologiyalar va nou-xaularni o'zlashtirishdi. Ikkinchidan, ular global talabdan ishlab chiqargan mahsulotlarini o'tkazishda juda unumli foydalanishdi. Boshqacha aytganda, bilimlar oqimi ulardagi iqtisodiyotning unumdorlik salohiyatini birdaniga oshirib yuborgan bir paytda, global bozor ularning mahsulotlariga talabni ta'minlab berdi.



3.1.1-rasm. Yuqori barqaror o'sishning umumiy xususiyatlari

Makroiqtisodiy nobarqarorlik, eng avvalo, kutilmagan inflyasiya darajasining yuqoriligi o'rta va uzoq muddatli istiqbolda hususiy sektorni investitsiyalar bo'yicha qarorlar qabul qishiga halal beradi. Bu holat moliyaviy tizimda ham jiddiy muammolarni yuzaga keltirishi mumkin.

Makroiqtisodiy barqarorlik, o'z navbatida, jamg'arma va investitsiyalarning yuqori darajaga chiqishini rag'batlantirdi. Ular kelgusidagi yuqori daromadni ko'zlagan holda joriy iste'molni kamaytirish tarafdori bo'lishdi.

Ba'zi mamlakatlar tejamkorlikni oshirish maqsadida to'g'ridan-to'g'ri choralarni qo'llashdi. Masalan, 1955 yilda Singapur, odatda, nafaqaga chiqquncha (ba'zan tibbiy va turarjoy ehtiyojlari uchun echib olish mumkin bo'lgan) ish haqidan o'tkazib boriladigan majburiy jamg'arish fondini tashkil etdi. Shunga o'xshash tizim Malayziyada ham joriy etildi.

Shuningdek, bu ikki mamlakat, YAponiya va Koreya singari kichik omonatchilarga xizmat ko'rsatuvchi jamg'armalarning pochta tizimlariga ham ega bo'lishgan. Shunisi ahamiyatliki, ularning moliyaviy institutlari kreditlar berishga

juda ham ehtiyotkorona munosabatda bo'lishgan va ehtimolki, aynan shu bilan mablag'larning jamg'arilishini yanada engillatishgan.

O'sishga erishish va uning barqarorligini ta'minlashda iqtisodiy tuzilmaning zaruriy sharti, bu – bozorlardir. Tezkor rivojlanayotgan iqtisodiyotlar hamisha bozor tizimiga tayanishgan. Shu bilan birga, ularning hukumatlari soliq imtiyozlari, maqsadli kreditlar va boshqa choralar yordamida mavjud ishchi kuchi va kapitalning samarali taqsimlanishiga ancha faol ravishda aralashishgan. Yuqori o'sishga mutanosib ravishda iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarning, boshqacha aytganda resurslar harakatchanligining tezkor sur'atda ortib borishi 13 ta mamlakatga xos bo'lgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qilib aytish mumkinki, so'ngi yillarda mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlik ta'minlanmoqda. Bu shundan dalolat beradiki, davlat qisqa muddatli iqtisodiy tebranishlarni, boshqacha aytganda, yalpi talab o'zgarishlari bilan bog'liq muammolarni hal etish bo'yicha har tomonlama chuqur va puxta o'ylangan izchil pul-kredit va soliq-byudjet siyosatini amalga oshirmoqda.

Modomiki, davlat oqilona barqarorlashtirish siyosatini yuritayotgan ekan, mamlakatimizda uzoq muddadli istiqbolda yuqori barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish uchun tovar va xizmatlarni samarali asosda ishlab chiqarishga ya'ni iqtisodiyot tuzilmasini o'zgartirishni ko'zda tutuvchi quyidagi sohalarda tarkibiy o'zgarishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

birinchidan, raqobatni rivojlantirish va samaradorlikni oshirish maqsadida davlat tomonidan narxlar ustidan nazorat qilinishini bosqichma-bosqich liberallashtirib borish;

ikkinchidan, davlat ulushi saqlab qolinayotgan korxonalar faoliyati samaradorligini tanqidiy baholash;

uchinchidan, ikkilamchi bozorlarni joriy etish, fond bozorlarini rivojlantirish va davlat banklarini strategik hamda iqtisodiy asoslangan darajaga qadar xususiylashtirish iqtisodiy o'sishda moliyaviy sektor rolini oshirishga xizmat qiladi;

to'rtinchidan, O'zbekistonda ta'lim sifatini xalqaro shkalalar bo'yicha baholash, boshqa mamlakatlar bilan o'zaro qiyoslash, ta'limga yo'naltirilayotgan davlat xarajatlari samaradorligini hisoblash yo'li bilan ularning iqtisodiy o'sishga ta'sirini aniqlash.

3.2. Tarmoqlar raqobatbardoshligini oshirishda innovatsiyalardan foydalanish istiqbollari

Innovatsion faoliyatini rivojlantirish insoniyatni samarali rivojlantirishning umumqabul qilingan yo'nalishiga aylandi. Uning sur'atlari keskin o'sib bormoqda, innovatsiyalarning miqyosi esa tobora oshib bormoqda. Ushbu yo'nalishda YAponiya, AQSH, Germaniya va boshqa shu kabi davlatlarda salmoqli natijalariga erishilgan bo'lib, ular yirik innovatsion yutuqlari asosida tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu davlatlarda innovatsion faoliyati davlat va mahalliy hukumat organlari tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatdiki, bunday ko'maksiz innovatsiyalarning tez sur'atlar bilan o'sishini ta'minlab bo'lmaydi⁵².

Darhaqiqat, rivojlangan davlatlar tajribasi ko'rsatishicha, sanoat korxonalarining barqarorlashuvi, sanoat ishlab chiqarishning barqaror o'sishi iqtisodiyotni zamonaviy intensiv texnologiyalarni yaratish, yuqori texnologik mahsulotlarni chiqarish sohasida ilmiy tadqiqot va ishlanmalarining natijalarni keng joriy etish asosida innovatsion rivojlanish yo'liga o'tish orqali erishiladi⁵³.

Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda ham innovatsion iqtisodiyotini shakllantirish uchun shart-sharoitlar mavjud. Xususan, yurtimiz Birinchi Prezidenti I. Karimov bu borada: «Biz uchun asosiy vazifa - ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan uzluksiz yangilab borish, doimiy ravishda ichki imkoniyat va zaxiralarni izlab topish, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga

⁵² Lundvall B. National Systems of Innovation: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning. London, 1992.

⁵³ Metcalfe S. The Economic Foundation of Technology Policy: Ecvilibrium and Evolutionary Perspective/Handbook of the Economics of Innovation and Technical Change / P.Stoneman (ed.). L.: Blackwell, 1995.

oshirish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni izchil davom ettirishdan iborat bo‘lishi zarur» deb aytib o‘tdi⁵⁴.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2008 yil 15 iyuldagi PQ-916-sonli qaroriga⁵⁵ asosan zamonaviy uskunalar va texnologiyalarning xalqaro va mahalliy ishlanmalarini o‘rganish, shu asosda zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishning har yilgi va o‘rta muddatli dasturlarini shakllantirish, mahalliy amaliy ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarga buyurtmalar jamlamasini shakllantirish, shuningdek ularni joylashtirish, amaliy ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar natijalarini korxona faoliyati amaliyotiga tatbiq etish ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, respublikamizda meva-sabzavot, go‘sht-sut va boshqa qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat xomashyosini qayta ishlash bo‘yicha yuqori unumli zamonaviy innovatsiya texnologiyalarini ishlab chiqarishga joriy etish, ushbu maqsadlar uchun, avvalambor, strategik xorijiy investorlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarini jalb etish⁵⁶, turli innovatsiya xizmatlarini, yangi aloqa vositalarini kengaytirish⁵⁷ vazifasi qo‘yilgan.

Shuni ta’kidlash kerakki, mazkur qarorlarning ijrosini tahlil qilish va undagi tendensiyalarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo tahlil qilishdan avval, “innovatsiya” va “innovatsion faoliyati” tushunchalariga aniqlik kiritamiz.

«Innovatsiya» so‘zi ingliz tilidan kelib chiqqan bo‘lib, uning tarjimai yangilanish, o‘zgartirish, yangilik kiritish degan ma’noni bildiradi⁵⁸. Boshqacha qilib aytganda, innovatsiya deb yangi ilmiy texnik yutuqlardan samarali

⁵⁴ Каримов И.А. Бош мақсадимиз – мавжуд қийинчиликларга қарамасдан, олиб бораётган ислохотларни, иқтисодиётимизда таркибий ўзгаришларни изчил давом эттириш, хусусий мулкчилик, кичик бизнес ва тадбиркорликка янада кенг йўл очиб бериш ҳисобидан олдинга юришдир. // Тошкент окшоми. 16 январь 2016 йил, № 12.

⁵⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2008 йил 15 июлдаги “Инновацион лойиҳалар ва технологияларни ишлаб чиқаришга татбиқ этишни рағбатлантириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-916-сонли қарори.

⁵⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 18 сентябрдаги “Республика озиқ-овқат саноатини бошқаришни ташкил этишни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2492-сонли қарори.

⁵⁷ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил 26 февралдаги “2016-2020 йилларда хизматлар соҳасини ривожлантириш дастури тўғрисида”ги 55-сонли қарори.

⁵⁸ Nelson R. National Systems of Innovation: A Comparative Analysis. Oxford, 1993.


foydalanishga aytiladi⁵⁹. I.T.Balabanov ta'kidlashicha, «Innovatsiya - yangi texnika yoki texnologiya, mehnat ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqaruv, shuningdek, nazorat, hisob-kitob, rejalashtirish uslublari, tahlil va boshqalarni tashkil etishning yangi shakllariga mablag' kiritish orqali erishilgan moddiylashgan natijadir»⁶⁰. Demak, innovatsiyaga yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot (tovar, ish, xizmatlar) ko'rinishdagi innovatsion faoliyatning yakuniy natijasi sifatida qarash mumkin.

Innovatsion faoliyati esa innovatsiya bilan bog'liq bo'lgan har qanday faoliyatni tushunish mumkin. Tor ma'noda esa innovatsion faoliyati ijtimoiy ishlab chiqarish, uning tarkibi, mahsulotni sotish va boshqaruv jarayonlarini o'zida qamrab oladi. Aksariyat davlatlarda innovatsion faoliyatiga yanada tor sohalarni – yangilikni sanoat yo'li bilan o'zlashtirish jarayoni, shu jumladan texnika va texnologiyalarni, kam hollarda ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish usullarini qamrab oladi. Innovatsion faoliyatning mazmunini tashkil etuvchi ishlarga amaliy tadqiqotlar, ishlanmalar (tajriba-konstruktorlik ishlari), yangi texnikani ishlab chiqarishga joriy etish kabilar kiradi. Birinchi ikkita bosqichlar ilmiy-texnik yutuqlarini ishlab chiqarishda amaliy jihatdan foydalanish imkoniyatlarini asoslashga qaratilgan. Joriy etish - imkoniyatlarni tatbiq etish jarayonidir. Ishlanmalarning natijalari – yaratilayotgan mehnat qurollari va ashyolariga tegishli aniq bir echimlari. Demak, innovatsion faoliyati yangilikni yaratish bilan bog'liq barcha turdagi (ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va h.k.) faoliyatni tushunish mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, innovatsion faoliyat bilan asosan ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy ta'lim muassasalari (OTM), konstruktorlik tashkilotlari, sanoat korxonalari va boshqa tashkilotlar shug'ullanadi. 3.2.1-rasm ma'lumotlardan 2007-2014 yillarda konstruktorlik tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va boshqa tashkilotlarning soni kamayganligini, va aksincha OTM, sanoat korxonalari soni ko'payganligini ko'rish mumkin.

⁵⁹ Маренков Н. Л. Инноватика: Учебное пособие. - М.: КомКнига, 2005. С. 194.


⁶⁰ Балабанов И.Т. Инновационный менеджмент - СПб: Питер, 2000. - С. 11.



3.2.1-rasm. 2007-2014 yillarda innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar soni

Manba: Muallif tomonidan O'zR statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Innovatsion sohadagi ushbu institutsional va tarkibiy o'zgarishlar o'z samarasini berayotganligini kuzatishimiz mumkin. Agar 2008 yilda innovatsion tovar, ish va xizmatlarning hajmi 1325,1 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2014 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 7042,9 mlrd.so'mga etdi, ya'ni 5,3 barobarga o'sdi (3.2.2-rasm).



3.2.2-rasm. O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqilgan innovatsion tovar, ish va xizmatlar hajmi

Manba: Muallif tomonidan O‘zR statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, ushbu sohada kichik tadbirkorlikning hisyasi tobora oshib bormoqda. 2011 yilda mana sub’ektlar vakillari tomonidan 33 ta texnologik innovatsiyalar joriy qilingan bo‘lsa, 2014 yilga kelib bu turdagi mahsulotlar 798 tani tashkil etdi, ya’ni 24 barobarga ko‘paydi (3.2.1-jadval). Mana shu davr ichida ushbu texnologik innovatsiyalarning qiymati 15,5 mlrd. so‘mdan (2011 yil) 1160,7 mlrd.so‘mgacha (2014 yil) o‘ydi, ya’ni qariyb 75 barobarga oshdi. Agar ushbu ko‘rsatkichni respublika miqyosi bilan solishtiradigan bo‘lsak, innovatsion tovar, ish va xizmatlarning umumiy hajmidan 16,5 foizi (2014 yil) kichik biznes sub’ektlariga to‘g‘ri keladi. Vaholanki, 2011 yilda bu ko‘rsatkich atigi 1,1 %ni tashkil etgan. Shunga mos ravishda 1 ta innovatsion birlikning qiymati ham o‘tib borib, 2014 yilga kelib 1454 mln. so‘mni (2011 yilga nisbatan o‘sish sur’ati 3 barobarni) tashkil etgan.

3.2.1-jadval


Kichik biznes sub'ektlarining innovatsion faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Yillar	Soni	Hajmi		1 innovatsion birlikning qiymati, mln.so'm
		mlrd.so'm	foiz	
1	2	3	4	5
2011	33	15,5	1,1	469,7
2012	72	265,4	7,3	3686,1
2013	609	409,8	8,9	672,9
2014	798	1160,7	16,5	1454,5

Manba: Muallif tomonidan O'zR statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, kichik biznes sohasida innovatsion faoliyati bilan shug'ullanadigan korxonalar va ular tomonidan yaratilayotgan yangiliklar soni ko'paymoqda. Bu esa innovatsion birligining qiymati tobora oshishiga olib kelmoqda. Bularning barchasi kichik tadbirkorlikning iqtisodiy-moliyaviy faoliyatiga ijobiy ta'sir etmoqda.

Shuni ta'kidlash kerakki, respublikamizda yaratilayotgan innovatsion tovar, ish va xizmatlarning aksariyat qismi sanoat sohasiga to'g'ri kelmoqda. Darhaqiqat, agar innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning tarkibi (3.2.1-rasm)ga qayta nazar tashlaydigan bo'lsak, innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi sanoat korxonalarining ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalarning umumiy sonidagi ulushi kichik bo'lsa ham (2014 yil holatiga ko'ra bu ko'rsatkich 2,9 foizni tashkil etgan), ular tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion tovar, ish va xizmatlarning ulushi yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, 2014 yil yakuniga ko'ra respublika miqyosida 88 % yaratilgan innovatsion tovar, ish va xizmatlar sanoat korxonalariga to'g'ri kelgan (3.2.3-rasm).




3.2.3-rasm. O‘zbekistonda ishlab chiqilgan innovatsion tovar, ish va xizmatlarning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (2014 yil)

Manba: Muallif tomonidan O‘zR statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Bu esa bevosita yaratilayotgan ishchi kuchiga bo‘lgan talabining o‘rishiga olib keladi. Jumladan, yaratilayotgan bir ishchi o‘ringa to‘g‘ri keladigan qiymat miqdori sanoat sohasida yuqori ekan. Xususan, sanoatda yaratilayotgan har bir ish o‘rining qiymati 97,7 mln.so‘mni tashkil etdi, vaholanki xizmat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida bu ko‘rsatkich ularga mos ravishda 25,9 mln. so‘m va 21,6 mln.so‘mga teng etdi. YA’ni sanoatda mazkur ko‘rsatkich xizmat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlariga nisbatan tegishlicha 3,7 va 4,5 barobar ko‘pdir⁶¹.

Agar ushbu ko‘rsatkichni sanoat tarmoqlari bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak, asosiy ulush elektrotexnika (652,1 mln. so‘m), mashinasozlik (461 mln. so‘m) hamda kimyo va neftkimyo (442,7 mln.so‘m) tarmoqlariga to‘g‘ri keladi. Bu tabiiy, chunki aynan mana shu tarmoqlarda yuqori qiymatga ega bo‘lgan mahsulotlar yaratiladi. Aks holatni qurilish (49 mln. so‘m), oziq-ovqat (37,6 mln. so‘m), to‘qimachilik (36 mln. so‘m), mebelsozlik (25,8 mln. so‘m) charm-poyabzal (23,9 mln.so‘m) tarmoqlarida ko‘rish mumkin. Bu tarmoqlarda aholi uchun kundalik ehtiyoj mollari ishlab chiqariladi va tabiiyki ularning narxi ancha past (3.2.4-rasm).

⁶¹ Статистический ежегодник Республики Узбекистан. - Т.: Госкомстат РУз, 2015 – 344 с.



3.2.4-rasm. Respublikamiz sanoat tarmoqlarida yaratilayotgan bitta yangi ish o‘rnining qiymati

Manba: Muallif tomonidan O‘zR statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Ushbu ko‘rsatkichlar respublikamizda sanoat korxonalarining innovatsion salohiyati yuqori ekanligini ko‘rsatib turibdi. Shu bilan birga, tadqiqotlar ko‘rsatishicha, sanoatda innovatsion faoliyatini yanada rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlari mavjud. Ulardan to‘liq va samarali foydalanish uchun ushbu sohada mavjud muammolarni bartaraf etish darkor. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yo‘nalishlarda ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, *innovatsiya faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash.* Innovatsion faolligini rivojlantirish uchun eng qulay mablag‘lar bank va boshqa ixtisoslashtirilgan moliyaviy tashkilotlarning maqsadli kreditlari hisoblanadi, chunki ular imtiyozli sharti bilan beriladi. Shuningdek, investitsiyalarning asosiy manbasi korxonaning o‘z mablag‘lari hisoblanadi. Shu bois moliyalashtirishda ana shu jihatlarni inobatga olish darkor.

Ikkinchidan, *innovatsion jarayonlarning huquqiy bazasini yaratish.* Intellektual mulk ob‘ektlarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish innovatsion faoliyatini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shu bois kichik innovatsion tadbirkorlik sub'ektlari uchun intellektual mulkni muhofaza qilishga oid qonunchilikni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, innovatsion texnologiyalarni transfer qilish (berish)ni ta'minlash. Innovatsion texnologiyalarning ishlab chiqarishga transfer qilish darajasi juda past. Shu bois, xodimlarning yangilikni joriy etishga manfaatini oshirish hamda natijalarni transfer qilish bo'yicha samarali mexanizmini ishlab chiqish zarur.

To'rtinchidan, innovatsion faoliyatini rag'batlantirish va ko'maklashish. Bu erda innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi, ayniqsa yangilik asoschilarini (ilmiy xodimlar, muhandislar, konstruktorlar)ni turli xil rag'batlantirish choralar (mukofot, yorliq, tashakkurnoma berish, bepul dam olish, sanatoriyaga yuborish, sayyohatni uyushtirish va h.k.) nazarda tutish lozim.

Beshinchidan, innovatsion jarayonni kadrlar bilan ta'minlash. Menejment, marketing, huquq, patentlash va boshqa shu kabi sohadagi mutaxassislarni tayyorlash va qo'shimcha kasb ta'lim tizimini rivojlantirish uchun OTM dasturlarini mazkur kasblarga moslashtirish lozim.

Oltinchidan, innovatsion faoliyatning axborot infratuzilmalarini shakllantirish. Internet tarmog'ida innovatsion muammolar, texnik va patentli axborotlar juda ko'p, biroq, tadbirkorlar uchun eng muhim bo'lgan bozorlar to'g'risida axborot juda kam. Shu bois mazkur axborotni va innovatsion faoliyat bilan bog'liq boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga olgan rasmiy portal yoki saytni yaratish va yurg'izish hamda uni nazorat qilish va muvofiqlashtirish vazifalarni manfaatdor idoralar zimmasiga yuklash maqsadga muvofiq.

Ettinchidan, innovatsion mahsulotlarning ommaviy talabini oshirish. Zamonaviy texnologik bozor murakkab iqtisodiy tuzilmani o'zida namoyon etib, u nafaqat milliy doirada, balki global doirada amal qiladi. Bundaoldi-sotdi predmeti nafaqat tovarlar, balki turli texnologik yangiliklarga bo'lgan patentlar, litsenziyalar va h.k. hisoblanadi. Shu bois yangilikni yaratishdan oldin ishlab chiqarish, davlat va jamiyat ehtiyojlarini o'rganish, marketing va menejment bo'yicha tadqiqotlarni

olib borish, shu jumladan soha mutaxassislar bilan birgalikda loyihalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Sakkizinchidan, *innovatsion jarayonlarning xalqaro munosabatlarini tartibga solish.* Milliy innovatsion tizimining faoliyat ko'rsatishi jahon innovatsion jarayonlar bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirilishi lozim. Ammo olimlarimizning raqobatli bozor muhiti sharoitida kam tajribaga ega bo'lganligi tufayli ular o'zining yangi mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqishda qiyinchiliklarga duch keladi. Shu bois respublikamizda eng so'nggi ilmiy g'oyalarni tijoratlashtirish tizimini rivojlantirish va optimal sharoitlarni yaratishga qaratilgan islohotlarni olib borish maqsadga muvofiq.

Ana shu va boshqa choralarning amalga oshirilishi respublikamizda sanoat korxonalarida, ayniqsa kichik biznes sub'ektlarida innovatsion faoliyatning faollashuvi va integratsiyalashuviga olib keladi, yangi sektor va innovatsion infratuzilmalarning paydo bo'lishi va buning natijasida yangi ish o'rinlarining yaratilishiga zamin yaratib beradi, pirovardida esa iqtisodiyotimizning yanada barqaror o'sishi uchun mustahkam poydevor yaratiladi.

III bob bo'yicha qisqacha xulosalar.

1. Korxona menejerlari hozirgacha milliy va jahon bozorlarida ro'y berayotgan o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilmasligi, iste'molchi talabi va didini o'rganmasligi, korxonaning boshqarish mezoniga nisbatan qaysi yo'nalishda barqaror raqobatli ustunlikka erishish imkoniyatlarini aniqlay olmasligi korxonalarning raqobat kurashida muvaffaqiyatsizlikka uchrashiga olib kelmoqda.

2. XXI asrda jahon iqtisodiyotini rivojlanishiga globallashtirish, integratsiya, investitsiya, innovatsiya va raqobat ta'sir ko'rsatadi. Shu bois ushbu maqolada ko'tarilgan muammolar innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish negizida korxonalar raqobatbardoshligini oshirish masalasiga ilmiy-nazariy jihatdan yondashilgan holda tadqiq etildi.

3. Keltirilgan tahlillar va olingan nazariy bilimlarga tayangan holda korxonaning innovatsion maqsadlari, istiqboli va uzoq muddatli innovatsion strategiyalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilsa hamda natijalari monitoringi

olib borilsa korxonaning raqobatbardoshlik darajasining ortishiga olib keladi. Natijada korxonaning innovatsion muhiti shakllanadi.

4. Fikrimizcha, korxona innovatsion strategiyasining shakllanish mexanizmi, uning iqtisodiy mohiyati va amal qilishining ob'ektiv asoslarini chuqur anglab etish, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida raqobatni rivojlantirish shart-sharoitlarini aniqlash va ularni ta'minlash yo'llarini o'rganish, innovatsion jarayonlarni rivojlantirish mexanizmlaridan maqsadga muvofiq foydalanish, uning ijobiy ta'sirlari samarasini oshirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tish davri iqtisodiyotida korxonalar faoliyatida innovatsion jarayonlarni namoyon bo'lish shakllari va usullari o'ziga xos xususiyat kasb etib, ularning samaradorligi iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish hamda erkinlashtirish jaryonlariga ham bog'liq bo'ladi. Korxonalar o'zining ijtimoiy-iqtisodiy missiyasi va maqsadini samarali amalga oshirish uchun innovatsion asosda barqaror rivojlanishi zarur. Bu esa, korxonalar uchun manfaatdor, yuqori darajada daromad keltiradigan ishlanmalar va yangiliklarni qo'llab-quvvatlash, energiya, resurs tejamkorligini ta'minlovchi samarali ilmiy hajmdor texnologiyalar va intellektual tizimlarni amaliyotga joriy etadigan innovatsion jarayonlar strategiya elementlarini quyidagi ko'rinishda ifodalashimiz mumkin.

Demak, yuqoridagi mulohazalar korxonalar raqobatdoshligini oshirishning muhim omili innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish ekanligini ko'rsatadi. Chunki innovatsion jarayonlar strategiyasi raqobatchilarga nisbatan mazkur korxona salohiyati va kuchini mustahkamlashga qaratilgan, qo'yilgan maqsadlarga erishishning o'zaro bog'liq bo'lgan tadbirlar majmui hisoblanadi. Bu esa, korxona innovatsion staregiyasini to'g'ri tanlashga, mahsulot raqobatdoshligini oshirish mexanizmlarini samarali tashkil etishga, ishlab chiqarish uchun ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi. Pirovard natijada korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishga sharoit yaratiladi.

Ishlab chiqarish tarkibiy tuzilishini o'zgartirish orqali tarmoqlar raqobatbardoshligini oshirish yo'llarini tadqiqot kilish va o'rganish quyidagi muhim xulosalarni va takliflarni shakllantirishga muvaffaq bo'lindi:

1. Hozirgi zamon bozor iqtisodiyotining rivojlanib borishi va davlatning iqtisodiyotni tartibga solish rolining kuchayib borishi bilan iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishida paydo bo'lgan yoki paydo bo'lishi mumkin bo'lgan nomutanosiblikni bartaraf etshda bozor mexanizmining sof holdagi amal qilish doirasi cheklanib bormoqda. Turli-tuman iqtisodiy manfaatlarni yagona umummilliy manfaat doirasida uyg'unlashtirish, barqaror iqtisodiy o'sishni va ijtimoiy-iqtisodiy

samaradorlikni ta'minlash maqsadi bozor regulyatorlarini ham ma'lum ma'noda nazorat qilish va tartiga solish zaruriyatini vujudga keltirmoqda.

2. Tarmoq va hudud dasturlarini muvofiqlashtirish va umumlashtirish asosida respublikada iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan nomutanosiblikni oldindan bartaraf etish chora-tadbirlari majmuini ifodalovchi kompleks dasturni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir

3. Innovatsion texnologiyalarning ishlab chiqarishga transfer qilish darajasi juda past. Shu bois, xodimlarning yangilikni joriy etishga manfaatini oshirish hamda natijalarni transfer qilish bo'yicha samarali mexanizmini ishlab chiqish zarur.

4. Innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi, ayniqsa yangilik asoschilarini (ilmiy xodimlar, muhandislar, konstruktorlar)ni turli xil rag'batlantirish choralar (mukofot, yorliq, tashakkurnoma berish, bepul dam olish, sanatoriyaga yuborish, sayyohatni uyushtirish va h.k.) nazarda tutish lozim.

5. Internet tarmog'ida innovatsion muammolar, texnik va patentli axborotlar juda ko'p, biroq, tadbirkorlar uchun eng muhim bo'lgan bozorlar to'g'risida axborot juda kam. Shu bois mazkur axborotni va innovatsion faoliyat bilan bog'liq boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga olgan rasmiy portal yoki saytni yaratish va yurg'izish hamda uni nazorat qilish va muvofiqlashtirish vazifalarni manfaatdor idoralar zimmasiga yuklash maqsadga muvofiq.

6. Zamonaviy texnologik bozor murakkab iqtisodiy tuzilmani o'zida namoyon etib, u nafaqat milliy doirada, balki global doirada amal qiladi. Bunda oldi-sotdi predmeti nafaqat tovarlar, balki turli texnologik yangiliklarga bo'lgan patentlar, litsenziyalar va h.k. hisoblanadi. Shu bois yangilikni yaratishdan oldin ishlab chiqarish, davlat va jamiyat ehtiyojlarini o'rganish, marketing va menejment bo'yicha tadqiqotlarni olib borish, shu jumladan soha mutaxassislar bilan birgalikda loyihalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.O'zbekiston Respublikasining Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2003.
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – T.: “Adolat”, 1996.
3. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. – T.: “O'zbekiston”, 1997.
4. O'zbekiston Respublikasining “CHet el investitsiyalari to'g'risida”gi qonuni. O'zbekiston Respublikasining yangi qonunlari. – T.: “Adolat”, 1992.
5. O'zbekiston Respublikasining “Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi qonuni. // Iqtisod va hisobot, №2, 1995.
6. O'zbekiston Respublikasining “CHet el investitsiyalari to'g'risida”gi qonuni. (Soliq to'lovchining jurnali 6-son). 1998 yil 30 aprel.
7. O'zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolati to'g'risida”gi qonuni. 1999 yil 14 aprel. O'zbekistonning yangi qonunlari. - “Adolat”, 1999.
8. “2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2010 yil 15 dekabrda **PQ–1442**–sonli Qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012 yil 27 dekabrda “O'zbekiston Respublikasining 2013 yilga mo'ljallangan investitsion dasturi to'g'risida”gi 1668-sonli qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

10. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: O'zbekiston, 1998. – 686 b.
11. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T-6. –T.: “O'zbekiston”, 1998. - 429 b.
12. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: “O'zbekiston”, 2000. – 252 b.

13. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va faravon xayot pirovard maqsadimiz. 8-tom. T.; "O'zbekiston", 2000. - 112 b.
14. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan xamkorlik yo'li. T.11 –T.: "O'zbekiston", 2003. -320 b.
15. Karimov I.A. O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. T.: "O'zbekiston", 2005. -144 b.
16. Karimov I.A. Inson, uning xuquq va erkinliklari – oliy qadriyat. T.14. – T.: "O'zbekiston", 2006. -280 b.
17. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning xayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T.15. –T.: "O'zbekiston", 2007. - 320 b.
18. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. T.16. –T.: "O'zbekiston", 2008. -368 b.
19. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari . – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
20. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. Xalq so'zi. 2013 yil 21 yanvar.

3. Kitoblar, monografiyalar, darsliklar, maqolalar to'plamlari:

21. Abdug'aniev A.A. Темпы и пропорсии воспроизводства общественного продукта в Узбекистане. -Tashkent: Fan. 1973.
22. Abdurazzakov U., Muslimov SH. Экономика социализма и рыночные отношения: опыт и проблемы. -Tashkent.: Mexnat. 1990.
23. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti (nazariya va amaliyot). Darslik. –T.: "Mexnat", 2004. -670 b.
24. Akramov E.A., Tairov A.E. Экономические реформы Республики Узбекистан. –М.: TOO Lyuks-art, 1998. -236 s.

25. Vohobov A.V. Bozor munosabatlariga o'tish bosqichidagi ko'p ukladli iqtisodiyot va uning takroran hosil bo'lishi. -T.: Moliya, 2002. -336 b.
26. Gaydar E. Ekonomicheskie reformy i ierarxicheskie struktury. -M.: - Nauka, 1993.
27. Mamatov M. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning nazariy asoslari./ Iqtisodiyot va ta'lim. 2011 yil, 4-son.
28. Tojiboeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. Ikkinchi kitob. -T.: SHarq, 2003. - 416 b.
29. Tuxliev N., Taksanov A. Natsionalnaya ekonomicheskaya model O'zbekistana. -T.: "O'qituvchi", 2000. -368 s.
30. SHadmanov E.SH. Mamlakatni modernizatsiyalash jarayonida iqtisodiyotni muvozanatli va mutanosibli rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari. – Toshkent, «IQTISOD-MOLIYA». 2010. -228 b.
31. SHadmanov E., SHodmonov SH., G'afurov U., Hamroev O. Iqtisodiyotda tejamkorlik va mutanosiblikni ta'minlashning nazariy-uslubiy asoslari. «ADIB NASHRIYOTI» MCHJ. 2010. -256 b.
32. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – T.: «SHarq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2006. –480 b.
33. Hamroev O.H. Iqtisodiy muvozanat va uni ta'minlash mexanizmlari. – T.: TDIU, 2004. -192 b.

4. Statistik to'plamlar

34. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari / O'zbekiston Respublikasi Statistik qo'mitasi. 2006 2010 yillar.
35. O'zbekiston Respublikasining statistik axborotnomasi 2009 / O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. – T., 2010.
36. O'zbekiston iqtisodiyoti / Axborot-tahliliy byulleten 2009 yil. Iqtisodiy tadqiqotlar markazi, 2010.
37. O'zbekiston Iqtisodiy axborotnomasi, 2012 / O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. – T., 2013 yil.

5. Internet saytlari

38. www.gov.uz—O'zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali

39. www.press-service.uz–O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning Matbuot xizmati rasmiy sayti
40. www.mfer.uz–O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo Vazirligining rasmiy sayti
41. www.UzA.Uz–O‘zbekiston milliy axborot agentligi rasmiy sayti
42. www.review.uz – “Ekonomicheskoe obozrenie” jurnalining rasmiy sayti
43. www.cer.uz – Iqtisodiy tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti
44. www.uzreport.com – biznes axborotlari portali
45. www.eurasianews.com – EvroOsiyo tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti
46. www.vip.lenta.ru – Internet nashriyoti
47. www.InternetNews.com – yangiliklar serveri